

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 12-dekabr
№50 (3164)

MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

www.mv-vatanparvar.uz



YANGRA, MADHIYAM!

*Quyosh aziz qilgan yurt taronasi,
Dilbar qo'shiqlarning so'z durdonasi,
Xalqimning navosoz baxt shukronasi,
Madhiyam – olamga bo'yla mardona!*

*Hurlikka qo'shqanot bu ulug'vor sas,
Muzaffar tug'rolar bo'lsin hamnafas,
Vatanga oshufta kuydir muqaddas,
Madhiyam – bag'ringda yashar ostona.*

*Har so'zi mardlikka undovchi shior,
Har so'zi dillarga berar iftixor,
Elim kalomi u – qamtar, ulug'vor,
Madhiyam – betakror qo'shiq yagona.*

Zulfiya YUNUSOVA

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun

TINCHLIKDA MADH, JANGDA MARSHGA AYLANGAN MADHIYA



Madhiya tushunchasining mazmun-mohiyati qadim-qadimdan ulug‘lash, sharaflash bo‘libgina qolmay, u jamiyatning ruhiy barqarorligini ta‘minlovchi muhim fenomen sifatida shakllanib kelgan. Masalan, u tinchlik davrida ma‘naviy yuksalishni targ‘ib etgan bo‘lsa, harbiy sharoitda qo‘shinni birlashtiruvchi, jasorat ruhini mustahkamlovchi muhim ma‘naviy vositaga aylangan. Demak, ushbu atamaning ikki asosiy qirrası, ya‘ni badiiy qiymati va ijtimoiy-harbiy missiyasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Quyida madhiyaning tabiati, tarixiy-madaniy asoslari, jangovar sharoitdagi vazifalari xususida so‘z yuritamiz.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilishicha, madhiya arabchada maqtov qo‘shig‘i, qasida ma‘nosini bildiradi. Qisqacha aytganda, biror shaxs, narsa, voqeani maqtab yozilgan, o‘qilgan she‘r yoki nutq, madh, maqtov – bu madhiya. Bu so‘z shu kungacha o‘zining turli ma‘nolarini namoyon qilib kelgan. Ayniqsa, qadim muhorabalarda “tantanali qo‘shiq” sifatida muhim rol o‘ynagan.

Qadimiy madhiyalarning ilk ko‘rinishlari diniy yozuvlar, muqaddas kitoblar bitiklarida saqlanib qolgan. Masalan, “Rigveda”dagi ko‘hna hind madhiyalari to‘plamining yoshi ming yillardan oshadi. “Zabur” kitobida ham yahudiylar ibodatida ishlatiladigan madhiyalar va qo‘shiqlar mavjud bo‘lsa, mixxat lavhalarida loy parchalariga yozilgan qadimgi Mesopotamiya madhiyalarini uchramiz.

Ilk madhiyalarning ritmi va ohangi ular kelib chiqqan madaniyat, mintaqa va tarixiy davrga qarab sezilarli darajada o‘zgarib borgan. Ular tantanali, g‘amgin, quvnoq ruh bilan ijro etilgan. Kuylash uslublari xilma-xil bo‘lib, ba‘zilarida yakkaxon, boshqalari guruh bo‘lib ijro etilgan. Yoki yakka ijrochi qo‘shiqning bir satrini kuylaydi va bunga boshqalar jo‘rlıkda javob qaytaradi.

Qanchalik izlanilmasin, ilk madhiyalarning aniq paydo bo‘lgan davrini belgilash qiyin. Biroq bizgacha yetib kelgan namuna va poetik qoliplar asosida ularning shakl va ritm xususiyatlarini tasavvur qilish mumkin. Eng qadimgi madhiyalar sifatida Shumer sivilizatsiyasiga oid eramizdan avvalgi 2500-yillarga mansub mixxatda yozilgan matnlar e‘tirof etiladi. Ular turli xudo va ma‘budalarning fazilatlarini ulug‘lashga qaratilgan bo‘lib, madhiya janrining ilk namunalarini tashkil etadi.

Qadimgi misrliklarda ham o‘z xudolariga minnatdorlik, maqtov va shara ifodalangan qo‘shiqlari bo‘lgan. Masalan, Fir‘avn Exnatonga tegishli “Aton madhiyasi” quyosh xudosi Atonni ulug‘laydigan mashhur madhiyalardan biridir. Yunonlarda ham Apollon, Germes va Afrodita kabi turli xudolarni ulug‘lovchi “Gomer madhiyasi” bo‘lgan. Ular diniy bayram va marosimlarda ijro etilgan.

MANBALARGA KO‘RA, Sug‘diyona, Xorazm, Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasida qadim-qadimdan “Avesto” an‘analari bilan bog‘liq marosimlar qayroq va zang yordamida chalingan bo‘lsa, kamon, qilich, pichoq, kaltak va mash‘alalar bilan jangovar raqslar ijro etilgan. Bu orqali homiy va pirlar alohida ehtirom bilan sharaflangan.

Darvoqe, “Avesto” matnlarida ko‘hna madhiya va qo‘shiqlarning ilk shakllari aniq namoyon

bo‘ladi. Unda xudolarni ulug‘lash va ezgulik kuchlarini da‘vat etishga qaratilgan muqaddas qo‘shiqlar – Got, Yasht va Yasna bir tizimga jamlangan. Gotlar Zardushtning Ahuramazdaga bag‘ishlangan falsafiy madhiyalari, Yashtlar Mitra va Anaxita kabi ilohiy kuchlarni madh etuvchi matnlar, Yasnalar esa olov, suv, yer va fazoviy unsurlarni ulug‘lovchi marosim qo‘shiqlaridan iboratdir.

Bu an‘ananing ta‘siri keyingi asrlar adabiyotida ham uzviy davom etgan. Masalan, “Alp Er To‘nga yoki Afrosiyob jangnomasi”da “Mehribon ko‘k, Tangri sha‘niga olqish” sarlavhasi ostida keltirilgan madhiya ana shu qadimiy ruhning yorqin namunasidir.

“

**Tangri ajun turutti,
Chig‘ri izi tezgino‘r.
Yulduzlari yurkashib,
Tun-kun uzra burkanur.**

Ma‘nosi:

*Tangri olamni yaratdi,
Falak doim aylanur.
Kun o‘rnini tun olur,
Yulduzlari shaylanur.*

”

Madhiyalar dastlab yaratgandan panoh va omonlik so‘rash qabilidagi murojaatlar shaklida bo‘lgan. Turkiy dostonlarda ham qahramonlarning homiy va pirlar ko‘magida bo‘lishi, shu sababli ham ular qattiq muhofazalangan, yengilmas va har qanday qiyin vaziyatdan mardonavor o‘tadigan kuch sifatida tasvirlanadi.

Dostonlarda qo‘shinning jangovar musiqa sadolari ostida harakatlanishi va madh aytishi an‘anaviy tarkibiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda harbiy musiqa asboblari bilan jihozlangan maxsus guruhlar ishtirok etgan bo‘lib, ular ritm orqali qo‘shin harakatining yagona tartib va birdamlikda amalga oshirishini ta‘minlagan.

“Yusuf va Ahmad” dostonida: “Sarboz urishadi karnay nahriga...” manzarasi berilsa, “Alpomish” dostonida: “O‘zbaklar ustiga lashkar qiladi, Namoyishga karnay-surnay qo‘yadi...” jumalari jangda musiqiy jangovarlik tempini namoyon qiladi.

Madhiyalar zamzama, dobul, kus, shikoridabilbon kabi musiqa asboblari vositasida aytilgani esa jangovar ohanglar yo‘lini ancha oydinlashtiradi.

HARBIY MUSIQACHILAR O‘rta Osiyo xonliklari qo‘shinida ham faol qo‘llanilgan. Karnaychi, surnaychi, nog‘orachi, naychi, dovulchilardan iborat harbiy guruhlar qo‘shinning harakati hamda jang natijalarini aholiga yetkazish vazifasini ham bajargan. Karnay, surnay, nog‘ora sadolari ostida askarlar o‘z joylarida saf tortib, jang qo‘shiqlarini aytishgan.

Tarixchisi Pompey Trog O‘rta Osiyoda yashovchi hamma qabilalar “Mehnatga va urushga chidamliligi va yengilmas jismoniy kuchi bilan ajralib turadi, ularning g‘alaba va shuhrat qozonishdan bo‘lak istaklari yo‘q” deb yozsa, Kvint Kursiy Ruf: “...Sug‘diyona – jasur odamlar, gavdalari juda barvasta, ular asir tushganlarida ham o‘limdan sira qo‘rqmaydilar, o‘lim oldidan ashula aytib, o‘z xursandchiliklarini bayon qiladilar”, degan fikrlarni bayon qiladi.

Demak, ushbu davrga kelib jangda qahramonlik ko‘rsatish, o‘z yerlarini dushman kuchlaridan muhofaza eta olish – eng katta bayram sifatida qaralgan.

Madhiyalar vaqt o‘tishi bilan urush davri marshlarining shakllanishiga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Jang marshlarining ohangi odatda, shiddatli va ko‘tarinki bo‘lib, musiqa askarlarda mardlik, qat‘iyat va jangga tayyorlik tuyg‘ularini kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Bunday marshlar jasorat, g‘alaba, shon-shuhrat va sadoqat g‘oyalarini uqtirib, qo‘shin ichida birlik va matonat ruhini mustahkamlagan hamda jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni ta‘minlagan.

Bu qo‘shiqlar barqaror ritmni saqlashdan tashqari, aloqa vositasini ta‘minlashda ham asqatgan. Buyruqlar yoki signallarning qo‘shiq matniga kiritilishi, shu orqali shaxsiy tarkibga yashirin ma‘lumotlar uzatilishi taktik jihatdan ta‘minlangan.

Turk xoqonligi va undan keyingi Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar hamda Temuriylar davrlarida jangovar musiqa harbiy hayotning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan. Qo‘biz, do‘mbira, tabl, karnay, burg‘u va nog‘ora kabi cholg‘ularda ijro etilgan marshlar qo‘shinga jang oldidan ruhiy shaylik va birdamlik baxsh etgan. Improvizatsiyaga moyil jangovar kuylar jangchilar jasorati va sharoit talablariga ko‘ra o‘zgarib, qo‘shin ichida shiddat, olov va ruhiy ko‘tarinkilik yarata olgan.

MADHIYA VA MUMTOZ ADABIYOT

Madhiya, o‘z mohiyatiga ko‘ra, madh etish, ulug‘lash va shukrona keltirish vazifalarini bajargani uchun adabiyot va ijod olamida asrlar davomida yashab kelgan ma‘naviy an‘ananing muhim qismi sifatida ham shakllangan.

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ning 2-jildida madhiyaga shunday ta‘rif beriladi:

Madhiya (arabcha – ta‘rif, tavsif, vasf) – biror shaxs, voqea yo narsa ta‘rif-tavsifiga bag‘ishlangan badiiy asar. An‘anaga ko‘ra, Sharq mumtoz adabiyotida dostonlar muqaddimasi madhiya bilan boshlangan. Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy “Xamsa”lari, Jomiy “Haft avrang”i shular jumlasidandir. Nasriy va nazmiy asarlar muqaddimasidan o‘rin olgan bir qism madhiyalar falsafiy-diniy ta‘limot asoschilari, shoh-u amir-amaldorlar, do‘st-u yaqinlar, ustozlarga bag‘ishlangan. Ba‘zida mualliflar asariga javob yozilayotgan u yoki bu shoir ta‘rifida madhiya bitadi.

Mumtoz adabiyotimizda ham turli hukmdorlarga bag‘ishlangan qasidalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Xususan, Sakkokiyning Mirzo Ulug‘bekka atalgan “Keldi” radifli qasidasi, Alisher

Navoiyning Husayn Boyqaroga atab bitgan “Hiloliya” qasidasi bunga yaqqol misoldir.

Hatto Navoiy davrida ham tildan tilga koʻchib, davralarda aytilaverib madhiya darajasiga yetgan ashʼorlar ham boʻlgan. Hazratning: “Din ofati bir mugʻbachayi mohliqodur, mayxora-yu bebok” satrlari bilan boshlangan mustazodi oʻz davrida juda mashhur boʻlib, yosh oshiqlarning madhiyasiga aylangan. Yoshlar bir yerga toʻplansa, bu sheʼrni baland ovozda, bir-biriga joʻr boʻlib, qoʻshiq qilib aytishgan.

Madhiyaning “gimn” shakli ham tilimizda uzoq yillar davomida qoʻllanilgani barchamizga maʼlum. Bu soʻz yunon tilidagi shakli “hymn” boʻlib, oʻzbek tilida “qoʻshiq” degan maʼnoni anglatadi. Qadimgi Sharqda madhiya soʻzi bilan birga “qasida” ham ishlatilgan.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻoti-t-turk” ensiklopediyasida ham madhiyaning “qoʻshugʻ” shaklidagi koʻrinishi uchraydi. Yaʼni “qoʻshugʻ” – sheʼr, qoʻshiq, qasida maʼnosida keladi.

“**Tarkan qatun qutina,
Tegur mendin qoshugʻ.
Aygʻil: Sizin tapugʻchi
Oʻtnur yani tapugʻ.**”

Maʼnosi: Malika (*shoh*) xotun shaʼniga mendan maqtov, qasida (*qoʻshiq*) yetkur va xizmatchingiz yangi xizmat soʻrayapti, oʻtinyapti, deb ayt...

Professor Abdurauf Fitrat “Devon” tarkibidagi jangnoma sheʼrlar, shiddatli hujumlar, alplar toʻqnashuvini tahlil qiladi. Jangovar madhiyalarning yuksak koʻrinishi oʻquvchini hayratga soladi:

“**Oʻpkam kalib oʻgʻradim,
Arisla-yu koʻkradim.
Alplar boshin toʻgʻradim,
Emdi mani kim tutar?**”

Maʼnosi: Mening ham gʻazabim keldi, arslonlar kabi naʼra tortdim, botirlarning boshlarini toʻgʻradim. “Emdi meni kim tuta olur, kim saqlay olur” deb qichqirdim.

Fitrat talqinicha, xalq dostonlariga xos boʻlgan jang sahnalari “Devon”da koʻplab uchraydi. Toʻrtliklardan aynan yodnomalardagi singari voqealarni axtarib boʻlmaydi. Chunki bu toʻrtliklar xalqniki, yaʼni xalq qoʻshiqlari singari yuzaga kelgan.

“Qutadgʻu biligʻ” asarida ham qadimgi turklarda “Tong nurlari ilohasiga madhiya” mavjud ekani keltiriladi. Shuningdek, asarida jangda mardlik va qahramonlik koʻrsatgan askarlar, botirlar toʻnga (*yoʻlbars*), toʻnga alp (*shavkatli bahodir*), soʻkman (*dushman safini yoruvchi*) singari unvonlar bilan taqdirlanib, ular sharafiga madhiyalar bitilgani yoziladi.

MADHIYANING MILLAT RAMZIGA AYLANISHI

Manbalardan koʻrinadiki, XX asr turkiy dunyosining koʻplab madhiyalarida asosiy maʼno xalqning ozod va farovon yashash istagi bilan bogʻliq boʻlgan. Ularda millatning qadimiy qadriyatlari, tarixiy merosi va umumiy ruhiy intilishlari yaqqol namoyon boʻlib, xalq oʻz

qahramonlari bilan faxrlanish va ularga munosib avlod boʻlish orzusini ifoda etadi.

Masalan, Sharqiy Turkistonning Turk Islom jumhuriyati madhiyasi boʻlgan “Qurtulish marshi” Muhammad Ali Tavfiq (1901–1937) qalamiga mansub boʻlib, unda shunday satrlarni ham uchratamiz:

“**Attila, Chingiz, Temur dunyoni titratgan edi,
Jon berib, shon olamiz, biz ham ular avlodimiz.
Chiqdi jon, ham oqdi qon, dushmandan boʻldi el omon,
Yashasin, hech oʻlmasin, porlasin istiqbolimiz!**”

Naim Karimov, “XX asr adabiyoti manzaralari” kitobida 1917-yil 26–29-noyabrda Qoʻqonda boʻlib oʻtgan Umummusulmonlar qurultoyi Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topganini eʼlon qilgani taraqqiyparvar kishilar tomonidan katta quvonch va shodlik bilan kutib olingani haqida maʼlumot beradi. Choʻlponning birinchi boʻlib Muxtoriyatni olqishlovchi “Ozod turk bayrami” sheʼrini yozgani, u varaqa shaklida tarqatilib, Muxtoriyatning madhiyasi sifatida xalq orasida ijro etilgani haqida ham maʼlumotlar keltiriladi.

Ushbu madhiyadan parcha keltiramiz:
Ozod turk bayrami!
(Usmonli turklarining “Oʻrdu marshi” ohangi-la aytilar)

Bolalardan 3 yo 4 tasi avvalgi 4 satrni oʻqurlar:

“**Koʻz oching, boqing har yon!
Qardoshlar, qanday zamon!
Shodlikka toʻldi jahon!
Fido bu kunlarga jon!**”

(Soʻnggʻi 2 satr ikki marta aytilar, “takror” aytilar).

Soʻngra bolalar xoʻr ila oʻqurlar:

**Turkistonli shonlimiz, turonli unvonimiz,
Vatan bizim jonimiz, fido oʻlsun qonimiz!**

Afsuski, Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan tugatilgandan soʻng koʻplab millatparvarlar qatori Choʻlpon ham qonli janglarni befarq kuzata olmadi. U 1919-yili u “Yurish marshi”ni yozib, Turon oʻgʻlonlarini qilichini qinga solmay, ona Vatanni ozod etishga chaqirdi.

Choʻlponning Turkiston Muxtoriyatiga bagʻishlangan, “Goʻzal Turkiston” bugun ham ijro etiladi va allaqachon turkiy xalqlarning madhiyasiga aylangan.

“**Goʻzal Turkiston senga ne boʻldi?
Sahar vaqtida gullaring soʻldi,
Chamanlar barbod qushlar ham faryod
Hammasi mahzun boʻlmasmi dilshod?
Bilmam nechun qushlar uchmas bogʻchalaringda?**”

YANA BIR MUHIM MAʼLUMOT. 1935-yilda Oʻzbekiston yoshlar komitetining Markaziy byurosi va Oʻzbekiston Xalq Komissarlar Sovet huzuridagi

Radiolashtirish va radioeshittirish komitetining qaroriga binoan, yoshlar tashkilotining VII qurultoyiga bagʻishlab vatanparvarlik ruhi bilan sugʻorilgan ommabop qoʻshiqlarni yaratish uchun tanlov eʼlon qilinadi.

Bundan koʻzlangan asosiy maqsad armiya ruhini koʻtaruvchi saf va jangovar qoʻshiqlarni yaratish, tarjima qilish edi. Bu tanlovga yuzlab qalam ahli ishtirok etadi va ularning sheʼrlari asosida yaratilgan qoʻshiqlar peshma-pesh yoshlar gazetasida chop etib boriladi.

Eng qizigʻi, ularning orasida **Mirtemir bilan Usmon Nosir** ham bor edi. Bu ikki shoir nafaqat tanlovning eng faollari, balki rus shoirlari va kompozitorlari hamkorligida yaratilgan koʻplab qoʻshiqlarning tarjimoni sifatida ham tilga tushgan edi.

Xususan, Usmon Nosir tomonidan I. Frenkel soʻzi, Esler musiqasi asosida yaratilgan “Komintern marshi” sheʼrining tarjimasi quyidagicha boshlanadi:

“**Zavodlar, turinglar qator saflarda,
Hujumga yuringlar, yuring, otlaninglar!
Oling toʻgʻri moʻljal, yiroqni koʻring,
Jangga, proletar, oldinga yuring!**”

“Zarbdor komsomollar marshi”, “Partizanlar marshi”da ham armiyaga katta kuch va madad baxsh etadigan ruh bor edi:

“**Togʻlar oshdi, yoʻllar yurdi,
Ey diviziya, olgʻa!
Dushmanlarning tayanch yurti –
Zoʻr dengizni olmoqqa.
Porlatardi bayroqlarni
Yaralardan oqqan qon.
Yurdi Amu partizani –
Kuchli, abjir eskadron.**”

“Shoʻx yigitlar marshi”, “Aviatsiya marshi” ham shoirning tarjimasi orqali mashhur boʻladi.

Umumiy manzaradan shunday xulosa chiqadiki, har bir davr madaniy-siyosiy ongi, davlatchilik maqsadlari va jamiyat orzu-umidlarini oʻzining madhiyalarida mujassamlashtirgan. Tinchlik davrida yaratilgan madhiyalar, avvalo, millatning botirlik ruhi, Vatanga sadoqat, ozodlik va mustaqillikning beqiyos qadrini oʻquvchiga yorqin tarzda his ettiradi.

Jang fursatlarida esa madhiyaning tabiati tubdan oʻzgaradi: bunday paytda u marsh xarakterini olib, qatʼiyat, jasorat, intizom va yagona maqsad sari qadam tashlayotgan qoʻshinning ruhiy ustuniga aylanadi. Bunday marshlar nafaqat ruhlantiruvchi, balki strategik vazifani bajaruvchi musiqiy qurol sifatida ham xizmat qiladi.

Bobur ELMURODOV,
filologiya fanlari boʻyicha
falsafa doktori



Sharqiy harbiy okrug

Mamlakatimizda mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz qudratini yangi bosqichga olib chiqish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar izchillik bilan davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni raisligida o'tgan Xavfsizlik kengashi yig'ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, jumladan qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni nazarda tutib, milliy armiya rivojida yangi bir davrni boshlab berdi.

Bu vazifalar ijrosi, ayniqsa Sharqiy harbiy okrug misolida yaqqol namoyon bo'lib, okrug qo'shinlari tayyorgarligi, amaliy mashg'ulotlar ko'lami va ta'lim tizimidagi yangilanishlar misolida namoyon bo'lmoqda.

Okrug tashkil etilganidan buyon, qo'shinlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda mamlakatimizning sharqiy hududlarida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlab, sarhadlarni ishonchli himoya qilish bo'yicha mas'uliyatli vazifalarni ado etib kelmoqda.

"Jangovar vzvod yili" shiori ostida o'tayotgan joriy o'quv yili

MILLIY MUDOFAA SALOHIYATINI



Sharqiy harbiy okrug qo'shinlarining tayyorgarlik jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi, desak, to'g'ri bo'ladi. Jumladan, kunduzgi va tungi vaqtlarda poligonlarda real jang sharoitlariga yaqinlashtirilgan mashqlar, amaliy, o'quv-uslubiy yig'inlar izchil tashkil etilmoqda.

2025-yil davomida okrugda jangovar tayyorgarlikni muntazam rivojlantirish maqsadida qator yo'nalishlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Xususan, doimiy ravishda amaliy otish mashg'ulotlari, harbiy texnikalarni boshqarish bo'yicha mashqlar amalga oshirildi. Shuningdek, majmuaviy taktik mashg'ulotlar va uzoq masofalarga piyoda marsh yurishlari o'tkazildi. Parashyut bilan kunduzi va tunda ko'plab amaliy sakrashlar bo'lib o'tdi. Yil davomida o'quv-uslubiy yig'inlar tashkil etilib, shaxsiy tarkibning nazariy va amaliy malakalari yanada mustahkamlandi.

Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan "Men g'olib!" shiori ostidagi ko'rik-tanlovlar ham okrug jamoalari uchun muhim natijalarni berdi. Jumladan, ular "Eng ilg'or merganlar guruhi", "Eng ilg'or tank guruhi",



MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA



Kapitan Orifjon MAMAJONOV

“Eng ilg‘or zenit-raketa guruhi” va “Eng ilg‘or zenit-artilleriya guruhi” yo‘nalishlarida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tashabbusi bilan olib borilayotgan qizg‘in islohotlar okrug shaxsiy tarkibi faoliyatida ham o‘z ifodasini topmoqda. Jumladan, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish, ularning oila a‘zolari uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, professionallik salohiyatini yuksaltirish maqsadida

zarur infratuzilma, imkoniyat hamda sharoitlar yaratildi.

Harbiy ta‘lim tizimi ham mudofaa salohiyatini mustahkamlashda muhim bo‘g‘in sifatida alohida o‘rin tutmoqda. Jumladan, Prezident topshiriqlari asosida, sohaning ilg‘or tajribalari o‘rganildi va harbiy ta‘limni zamon talablariga moslashtiruvchi yangi milliy model ishlab chiqildi. Ushbu islohotlar doirasida ofitser va serjantlar tarkibini zamonaviy asosda tayyorlash uchun harbiy okruglarda o‘quv fakultetlari tashkil etildi. Xususan, Sharqiy harbiy okrugda ham Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining o‘quv fakulteti faoliyati yo‘lga qo‘yilib, kadrlar tayyorlashning yangi bosqichi amaliyotga tatbiq etildi.

Harbiy ta‘lim tizimining modernizatsiya qilinishi va okrugda o‘quv fakultetining ish boshlashi zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yangi avlod ofitser va serjantlarini tayyorlashda muhim bosqichga aylandi. Umuman olganda, Sharqiy harbiy okrugda olib borilayotgan keng ko‘lamli mashg‘ulotlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari va yoshlar bilan tizimli ishlash mexanizmlari Qurolli Kuchlarimiz qudratini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu faoliyat mamlakat xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta‘minlash yo‘lidagi fidokorona harakatlarning amaliy ifodasi bo‘lib, kelgusida milliy armiyamizning yanada zamonaviy, professional va barqaror tuzilma sifatida rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharqiy harbiy okrugda olib borilayotgan islohotlar qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish orqali milliy mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Leytenant
Mirjalol ABDOJABBOV,
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati**



Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning eng ustuvor vazifalaridan biri milliy xavfsizlik tizimini yaratish, suverenitetni himoya qila oladigan zamonaviy, professional va mustaqil Qurolli Kuchlarni barpo etish bo'ldi. 1991-yilda sobiq Ittifoq armiyasi tarkibidan ajralib, o'zining harbiy boshqaruv tuzilmasiga ega bo'lgan O'zbekiston uchun bu jarayon tarixiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan sinov davri edi. Mamlakat rahbariyati tomonidan 1992-yil 14-yanvarda Qurolli Kuchlar tashkil etilgan sananing rasman e'lon qilinishi milliy armiyaning shakllanishida muhim bosqich bo'ldi.

Bugun oradan o'ttiz yildan ortiq vaqt o'tgach, O'zbekiston Qurolli Kuchlari nafaqat mamlakat mudofaa qalqoni, balki butun Markaziy Osiyo xavfsizlik arxitekturasining ajralmas qismiga aylangan kuch sifatida e'tirof etilmoqda. 2017–2025-yillar davomida amalga oshirilgan harbiy islohotlar natijasida armiyaning tashkiliy tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi, qo'shinlar boshqaruvi tizimi soddalashtirildi, jangovar tayyorgarlik bo'yicha NATO standartlariga yaqinlashtirilgan metodikalar joriy etildi.

O'ZBEKISTON ARMIYASI:



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida bugun kontrakt bo'yicha professional harbiy xizmatchi xizmat qilmoqda. Bu esa armiyaning harakatlanish tezligi, moslashuvchanligi va tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirdi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda "Forish", "Kattaqo'rg'on", "Markaz" poligonlarida o'tkazilayotgan yirik qo'shinlararo o'quv mashg'ulotlar, qo'mondonlik-shtab yig'inlari va xalqaro hamkorlikdagi treninglar O'zbekiston armiyasining jangovar tayyorgarligi va real sharoitda harakat qilish qobiliyatining yuqori ekanini ko'rsatib bermoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari mintaqada nafaqat o'z hududi, balki butun Markaziy Osiyoning xavfsizligi, barqarorligi va strategik muvozanatini saqlashda muhim o'rin tutadi. Terrorizmga qarshi kurash, chegaralarni himoyalash, strategik obyektlar xavfsizligini ta'minlash va xalqaro tinchlikni qo'llab-quvvatlash masalalarida O'zbekiston armiyasining tajribasi yildan yilga ortib bormoqda.

Shu bois bugungi o'zbek armiyasi – o'zining mustahkam ma'naviy asoslari, jasur shaxsiy tarkibi, yangilangan texnik salohiyati va xalq bilan chambarchas bog'langani bilan ajralib turadigan nafaqat

milliy mudofaa, balki butun mintaqaning tinchligi va barqarorligi uchun ishonchli tayanchga aylangan kuchdir.

TARIXIY ASOSLAR: MUSTAQIL ARMIYANING SHAKLLANISHI

1991–1995-yillar O'zbekiston Qurolli Kuchlarining shakllanishida poydevor bo'lgan tarixiy davr sifatida alohida o'rin tutadi. Mustaqillik e'lon qilingan dastlabki kunlardan boshlab davlat rahbariyati milliy armiyani yaratish masalasini strategik ustuvor vazifa sifatida belgiladi. 1992-yil 14-yanvar kuni respublika hududidagi sobiq Ittifoq harbiy qismlari to'liq O'zbekiston tasarrufiga o'tkazildi va shu sana Qurolli Kuchlar tashkil etilgan kun sifatida e'tirof etildi. Mazkur bosqichda harbiy boshqaruv tizimi tubdan yangilandi, milliy ofitserlar korpusini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti kabi harbiy ta'lim dargohlari o'zbek modeli asosida qayta tashkil qilindi. Shu yillarda armiyaning mustaqil intizomiy tizimi, harbiy unvonlar, qo'shin turlari

va ularning boshqaruv mexanizmlari shakllandi.

Keyingi bosqich 2000–2010-yillar O'zbekiston Qurolli Kuchlarining huquqiy, tashkiliy va ma'muriy negizlarini mustahkamlash davri bo'ldi. Bu yillarda "Mudofaa to'g'risida", "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida", "Qurolli Kuchlar rezervi to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi harbiy xizmatning aniq tartibga solingan, izchil va shaffof tizimini yaratdi. Shu hujjatlar asosida chaqiruv va xizmat muddati, harbiy xizmatning turlari, zaxira xizmati, safarbarlik tartibi hamda harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi to'laqonli belgilab berildi. Bu islohotlar natijasida armiyaning boshqaruv tizimi yanada markazlashtirildi, qo'shinlarning jangovar tartibi va safarbarlik salohiyati izchil oshirildi. Harbiy qo'mondonlik organlarining faoliyati takomillashdi, harbiy-ma'muriy birliklar o'rtasidagi koordinatsiya kuchaydi.

2017–2025-yillar esa O'zbekiston Qurolli Kuchlarining yangi tarixiy bosqichga ko'tarilish davri bo'ldi. Bu yillarda harbiy sohada keng ko'lami modernizatsiya amalga oshirildi: qo'shinlar zamonaviy qurol-yarog', jangovar

texnikalar, o'q-dorilar, kommunikatsiya va kuzatuv vositalari bilan jihozlandi. Harbiy aviatsiyada yangi turdagi vertolyot va samolyotlar o'zlashtirildi, havo mudofaasi tizimiga zamonaviy zenit-raketa majmualari joriy etildi. Poligonlarda real jangovar sharoitga yaqin mashqlar, qo'shin turlari o'rtasida hamkorlikdagi operatsiyalar, taktik va strategik o'quvlar muntazam o'tkazila boshlandi.

Bugungi O'zbekiston armiyasining harakat tezligi, aniqligi, intizomi va texnologik salohiyati aynan shu izchil modernizatsiya siyosatining bevosita natijasidir. Yangi texnikalar, raqamli boshqaruv tizimlari, hamkorlikda ishlovchi qo'shin turlari va malakali harbiy kadrlar armiyani Markaziy Osiyodagi eng ishonchli va jadal rivojlanayotgan mudofaa tizimlaridan biriga aylantirdi.

Ma'naviy tamoyillar: "Vatan–Millat–Xalq" g'oyasi. Harbiy tizimning kuchi faqat qurol-yarog'ning zamonaviyligida yoki texnik ustunlikda emas. Uning haqiqiy qudrati askar qalbidagi g'urur, vatanparvarlik, mas'uliyat va ruhiy barqarorlikda mujassam bo'ladi. "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida ko'p bora ta'kidlanganidek, O'zbekiston Qurolli Kuchlari faoliyatining mafkuraviy





JANGOVAR QUDRAT, TARIXIY ASOS



poydevorini “Vatan–Millat–Xalq” konsepsiyasi tashkil etadi. Bu konsepsiya oddiy shior emas u harbiy xizmatchining butun dunyoqarashi, ichki ishonchi va xizmatga boʻlgan munosabatini belgilab beruvchi hayotiy mezondir.

Vatan – ajdodlar merosi, muqaddas tuproq, sharaf va gʻurur timsoli. Bu tushuncha har bir askarga oʻzining ildizi, tarixi, milliy oʻzligini eslatadi. Har bir mashgʻulotda, har bir saf tortishda askar qalbidagi “Men shu zamin farzandiman, uning taqdiriga mas’ulman” degan tuygʻu mustahkamlanadi.

Millat – oʻzlik, til, madaniyat va qadriyatlarning asosi. Harbiy tizimda milliy ruh, ona tiliga hurmat, madaniy merosga eʼtibor askarning maʼnaviy barqarorligini kuchaytiradi. Bu, ayniqsa yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda muhim rol oʻynaydi.

Xalq – bir maqsad va bir gʻoya atrofida birlashgan ulkan kuch. Askarning eng katta tayanchi xalqning ishonchi va duosidir. Xalq va armiya birligi Oʻzbekiston mudofaa tizimining eng muhim mezonlaridan biridir. Bugun harbiy xizmatchilar kundalik xizmat jarayonidan tortib, dala-oʻquv mashgʻulotlarigacha boʻlgan

barcha bosqichlarda aynan mana shu tamoyilga tayanadi. “Vatan–Millat–Xalq” konsepsiyasi askarlarga kuch beradi, ularga mas’uliyat yuklaydi, ularda sadoqat tuygʻusini yanada mustahkamlaydi.

Soʻnggi yillarda harbiy boʻlinmalarda maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimi tubdan takomillashtirildi. Harbiy psixologlar faoliyati kengaytirildi, boʻlinmalarda psixologik barqarorlikni mustahkamlash boʻyicha amaliy mashgʻulotlar muntazam oʻtkazilmoqda. Shuningdek:

- harbiy xizmatchilar uchun **huquqiy savodxonlik darslari**;
- boʻlinma komandirlari bilan **maʼnaviy-maʼrifiy suhbatlar**;
- yosh askarlar uchun **moslashuv davri boʻyicha psixologik treninglar**;
- oilaviy masalalar boʻyicha **psixologik maslahatlar** keng joriy etildi.

Mana shunday maʼnaviy tayanch va ruhiy barqarorlik harbiy xizmatchining jangovar tayyorgarligi bilan bir qatorda armiyaning umumiy salohiyatini oshiradigan muhim omil hisoblanadi. Harbiy texnika askarning qoʻlida kuchga aylanadi – ammo askarning qalbidagi Vatan muhabbati, zimmasidagi mas’uliyat va sadoqat uni haqiqiy mudofaa kuchiga aylantiradi.

Jangovar salohiyat: amaliy mashgʻulotlar va texnologik yangilanish. Bugungi Qurolli Kuchlar nafaqat intizomli, balki zamonaviy texnikaga ega boʻlgan professional armiyadir. Harbiy boʻlinmalarda olib borilayotgan amaliy mashgʻulotlar, dala-oʻquv jarayonlari, qoʻshin turlari oʻrtasidagi hamkorlikdagi taktik-oʻquvlar armiyaning real sharoitda harakat qilish qobiliyatini keskin oshirmoqda. Poligonlarda oʻtkazilayotgan mashgʻulotlar endi oddiy nazariy mashqlar emas – ular zamonaviy jangovar vaziyatlarni modellashtiruvchi real tayyorgarlik bosqichlaridir. “Forish”, “Kattaqoʻrgʻon”, “Markaz”, “Chimyon” kabi poligonlarda oʻtkazilayotgan qoʻshinlararo oʻquvlar davomida harbiylar:

- murakkab relyef sharoitida harakatlanish;
- dron yordamida nishon aniqlash;
- tungi sharoitda yuqori aniqlikda otish;
- taktik guruhlar tarkibida uyushgan holda hujum va mudofaa operatsiyalarini bajarish;
- aviatsiya bilan yer qoʻshinlari oʻrtasida muvofiqlashtirilgan harakatlarni tashkil etish kabi koʻnikmalarni oʻzlashtirmoqda.

Zamonaviy texnikalar qoʻshinlarning jangovar salohiyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Dronlar, termal kuzatuv vositalari, portativ aloqa qurilmalari, GPS asosidagi boshqaruv tizimlari, yuqori aniqlikdagi artilleriya qurilmalari – bularning barchasi oʻquv jarayonini real jangovar holatga maksimal darajada yaqinlashtiradi.

Artilleriya boʻlinmalarida esa raqamli boshqaruv tizimi joriy etilib, dronlardan olingan koordinatalar asosida nishonga aniqlik bilan zarba berish imkoniyati yaratildi. Bu esa otish samaradorligini bir necha baravar oshirdi.

Harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi ham muntazam takomillashmoqda. Desant boʻlinmalarining balandlik amaliyotlari, suv toʻsiqlaridan oʻtish mashqlari, ekstremal sharoitdagi yashovchanlik boʻyicha treninglar – bu zamonaviy armiyaning ajralmas boʻlagidir.

Bugungi Oʻzbekiston armiyasi shunchaki mudofaa kuchi emas – u tezkor, harakatchan, texnologik jihatdan taʼminlangan va har qanday xavf-xatarga chaqqon javob bera oladigan professional qoʻshin tizimi. Bu yuksalish mamlakatning milliy xavfsizligini taʼminlash barobarida Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va hamkorlikni kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston Qurolli Kuchlari bugun tarixiy tajriba, maʼnaviy tamoyillar va zamonaviy texnologiyalar uygʻunlashgan professional armiyaga aylandi. Mustaqillikning ilk yillarida poydevori



Suratlar tahririyat arxividan olindi

qoʻyilgan bu tizim bugun zamonaviy harbiy talablarga javob beradigan, yangi avlod texnikalari bilan jihozlangan, har bir harbiy xizmatchining maʼnaviy-ruhiy holati mustahkam asosga ega boʻlgan harbiy tuzilma sifatida shakllandi. Harbiy islohotlarning izchil davom ettirilayotgani, qoʻshin turlari oʻrtasidagi hamkorlikning takomillashuvi, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan ijtimoiy-maishiy sharoitlarning yaxshilanishi, oʻquv mashgʻulotlar tizimining takomillashuvi bularning barchasi davlat mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlayotgan omillardir.

Boʻlinmalar oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik, qoʻshin turlari qoʻshma mashgʻulotlarining kengayishi, harbiy psixologlar va maʼnaviy-maʼrifiy kengashlar faoliyatining kuchayishi askarlarda mas’uliyat, sadoqat va birdamlik ruhini yanada mustahkamlaydi. Bu esa harbiy xizmatchining nafaqat texnik, balki maʼnaviy tayyorgarligini ham yuksaltirib, Qurolli Kuchlarning umumiy salohiyatini oshiradi. Bugungi Oʻzbekiston armiyasi – Vatan tinchligi, xalq osoyishtaligi va mintaqa barqarorligining ishonchli kafolati.

Sherzod ALIMOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti dotsenti

Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!



YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA VA JAMOATCHILIK NAZORATI

Mustaqil O'zbekistonning ilk Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda mamlakatimiz parlamenti tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bevosita 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumida qabul qilinganini alohida ta'kidlash lozim.

Chunki Konstitutsiyaviy komissiya raisi akademik Akmal Saidov ta'бири bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini inobatga olingani, Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida butun jamiyat jipslashgani – Bosh qomusimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi ekanidan dalolat beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamoatchilik nazoratini kafolatlaydigan normalar alohida o'rin tutadi. Xususan, 2-moddadagi quyidagi normalarning o'ziyoq yurtimizda jamoatchilik – jamiyat va fuqarolarning maqomi naqadar yuksakligini yaqqol tasdiqlab turibdi: **“Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar”**.

Muhimi, “jamoatchilik nazorati” tushunchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada konstitutsiyaviy institut maqomiga ko'tarildi. Ya'ni Bosh qomusimizning 36-moddasiga binoan: **“O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.**

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi”.

Shuningdek, Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga – jamoatchilik nazoratining asosiy subyektlariga bag'ishlangan alohida **“Fuqarolik jamiyati institutlari”** nomli XIII bob kiritildi. Asosiy qonunimizning 69-moddasiga ko'ra: **“Fuqarolik jamiyati institutlari, shu**

jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi”.

Konstitutsiyaning eski matnida “jamoat birlashmalari” tushunchasiga berilgan ta'rif yanada aniqlashtirildi. Bosh qomusimizning 70-moddasi jamoat birlashmalari faoliyatini kafolatlovchi norma bilan to'ldirildi. Endilikda ushbu konstitutsiyaviy moddaga binoan: **“O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi”**.

Shuni ham qayd etish joizki, Konstitutsiyaning 115-moddasi o'ninchi bandida hukumatning asosiy vakolatlaridan biri sifatida: **“ijro hokimiyati organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya ko'rinishlariga qarshi kurashish”** vazifasi belgilangan. Bu, o'z navbatida, ayni jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazorati olib borilishini ham nazarda tutadi.

Mazkur yangi konstitutsiyaviy normalar fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimiz hayotidagi rolini yanada oshirish bundan buyon ham e'tibor markazida bo'lishini tasdiqlaydi. Bu bejiz emas. Chunki mahallalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mamlakatimiz hayotining barcha sohalaridagi qamrovdor islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishda beqiyos o'rin tutadi.

Bu haqda so'z borganda, 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan va 2021-yil 21-apreldagi qonun bilan ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan **“Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi qonun** haqida ham qisqacha to'xtalish

lozim. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasida uchramaydigan bunday yaxlit qonunning qabul qilinishi keng jamoatchilik tomonidan ijobiy kutib olindi. Aksariyat ekspertlarning fikricha, ayni qonun tegishli yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Qonun bilan jamoatchilik nazoratining subyektlari, uning amalga oshirish shakllari va huquqiy mexanizmlari aniq belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari – jamoatchilik nazorati subyektlari hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati, qonunning 3-moddasida belgilanganidek, jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Qonunning 4-moddasida jamoatchilik nazoratining obyektlari sanab o'tilgan. Unga ko'ra, davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining:

- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarida, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga;
- fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta'minlashga;
- o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga;
- davlat xizmatlarini ko'rsatishga;
- ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyektidir.

Qonunning 5-moddasida jamoatchilik nazoratining 7 ta asosiy prinsipi mustahkamlab qo'yilgan. Bular:

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvorligi;

- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;

- jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi va beg'arazligi;
- jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchiligi;
- jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

O'z navbatida, qonunning 6-moddasida qayd etilganidek, jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

- davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o'rganish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.

Jamoatchilik nazoratining ushbu shakllari ayni vaqtda barcha davlat tashkilotlari faoliyatida tobora keng qo'llanilmoqda. Misol uchun, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi Jamoatchilik kengashi ishlab turibdi.

Shunday qilib, har qanday jamiyat va mamlakat ravnaqi uning ishtirokchilari, ya'ni fuqarolar sa'y-harakati bilan amalga oshadi. Bu jarayonda esa jamoatchilik nazorati alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan ko'ra samarali vosita yo'q.

Farida XAKBERDIYEVA,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi
bosh mutaxassisi

Harbiy jang san'ati

KOMANDIRLIK FAOLIYATIDA IJODIY TAFAKKUR

Komandir shaxsiyatidagi ijodkorlik bevosita jang natijasiga ta'sir ko'rsata oladigan muhim omillardan biridir. Chunki harbiy sharoitda vaziyat tez o'zgaradi, mavjud imkoniyatlar cheklangan bo'ladi. Tarixdagi buyuk sarkardalarning muvaffaqiyati ham aynan shunday ijodiy tafakkur va vaziyatni teran anglash qobiliyati bilan belgilangan.

Qadimgi yunon sarkardalari Epaminondan tortib, Aleksandr Makedonskiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning harbiy amaliy tajribasi shundan dalolat beradi. Ularning har biri jang sahnasiga muayyan yangilik olib kirgan, dushman ustidan ustunlikni yaratishda yangi taktika va usullarni qo'llay olgan.

Albatta, harbiy tarixda ba'zi bir muhorabalarda sarkardalarning faoliyati, birinchi navbatda, ijodiy tafakkur kuchi, yangi g'oyalarni, harakat uyg'unligi va

usullarni ixtiro qilish bilan lol qoldiradigan misollar va sarkardalar talaygina, ular o'z-o'zidan tahsinga sazovor.

Shundaylardan biri Levktra yaqinidagi jangda (*miloddan avval 371-yil*) birinchi bo'lib, hozirgacha ham deyarli barcha muhorabalarining yakunini belgilab beradigan buyuk taktik tamoyil: kuchlarni hal etuvchi yo'nalishda jamlash maqsadida qo'shinlarni front bo'ylab notekis joylashtirishni kashf etgan Epaminondir.

Issa yaqinidagi jangda (*mil. av. 333-yil*) ataylab amalga oshirilgan chekinish orqali dushmani tayyorlangan pistirmaga duchor qilgan Aleksandr Makedoniskiy shular jumlasidandir.

Mo'g'ullarning yirik birlashmasi bilan Parvon yaqinidagi muhorabada (*1221-yil yozida*) yangi taktikani – otliq qo'shinlarning suvoriy (*otliq*) va yayov tartibdagi harakatlarini samarali uyg'unlashtirishni qo'llagan Jaloliddin Manguberdi shular qatorida.

To'xtamishxon bilan Qunduzcha (*Kandurcha*) daryosi yoqasidagi muhorabadagi (*1391-yil 18-iyun*) Amir Temur ham shular qatorida, chunki bu

muhoraba yakunini sohibqiron tomonidan jangga kuchli xazira kiritilishi va qanotdan berilgan kuchli zarba hal qildi.

Panipat yaqinidagi muhorabada (*1526-yil, 21-aprel*) Dehli sultonining sakkiz karra ustunlikka ega qo'shinlariga qarshi chiqqan Zahiriddin Muhammad Bobur shunday sarkardalardan, chunki har xil qo'shin turlari harakatlarini mohirlik bilan uyg'unlashtirdi, muammo yuzaga kelayotgan joylarga kerakli miqdordagi qo'shinlarni zudlik bilan tashlay oldi. Olov sochuvchi (*o'qotar*) qurol va artilleriyaga egalik ham bu jangda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Napoleon ham shular qatoridan joy olgan, chunki Avstriya armiyasiga qarshi olib borilayotgan Ulm kampaniyasi davomida (*1805-yil*) yirik kuchlar bilan ko'chishni (*manyovr*) amalga oshirib, dushmani uning bazalaridan ajratib qo'yish va aylantirilgan qanot bilan jang qilishga majbur etish maqsadida dushmanning o'ng qanotidan aylanib o'tdi va uning fronti ortidan chiqishni uddaladi.

Ilmiy ijodning ko'p sohalarida olimlar katta, ba'zan buyuk natijalarga erishishi mumkin. Biroq harbiy ishda fikrlashning aniqligi muvaffaqiyatning zarur shartidir.

Sohibqiron Amir Temur ham shunday dahodir. Bu ayniqsa, uning bir (*ko'p sonli jasoratlaridan biri*) sarkardalik harbiy jasoratida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hindistonga yurish (*1398–1399-y.*) mobaynida o'tish qiyin hududlarda joylashgan mustahkam qal'alarni (*Batnir, Mo'ltun va boshqalar*) qamal qilish va ishg'ol

etishda o'ta samarali usullarni qo'llashi, qal'a himoyachilarini qisqa vaqt ichida taslim bo'lishga majbur qilish imkonini berdi.


Asosiysi, Amir Temur faqatgina shu sifatlarga egaligi bilan qoniqmadi, u o'z sarkardalari, amirlari ham bu xislatlarga ega bo'lishini istagan. Sohibqiron sarkardaning ikir-chikirlarni nazardan qochirmasligini yuksak baholagan.

Ikir-chikirlarga e'tibor qaratish Amir Temur va uning maktabiga xos bo'lishi bilan birga buyuklikka intiluvchi har qanday sarkardada bo'lishi lozim.

Tarixiy misollar ko'rsatadiki, buyuk sarkardalarning g'alabasi ko'pincha ularning o'tkir zehni, kutilmagan manyovrlar va samarali qarorlar bilan bog'liq. Shu bois komandirlar tarixiy sarkardalarning tajribasidan xulosa chiqarib, ijodiy fikrlashni o'z kasbiy amaliyotining ajralmas qismiga aylantirishi zarur.

Murod IBRAGIMOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti dotsenti

Inson – jamiyat – davlat



Yangi Bosh qonunni yaratish jarayonining o'zi misli ko'rilmagan demokratik tamoyillarga asoslandi. Xalqning fikri, taklifi, istagi bu jarayonda bosh mezon bo'ldi. Natijada Konstitutsiyaning eng asosiy g'oyasi "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili markazga qo'yildi. Bu esa davlat siyosati endi har bir qarorni inson manfaatiga xizmat qiladigan qilib qabul qilishi kerakligini anglatadi.

Bugun O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida "inson qadri" tamoyili nafaqat so'z, balki real qonuniy mexanizmga aylangan. Konstitutsiyaning 20 dan ortiq moddasida inson sha'ni, qadr-qimmat, huquqlari va erkinliklari haqida aniq belgilangan normalar o'z aksini topdi.

Shaxsning daxlsizligi, adolatli sud himoyasi, so'z erkinligi, fikr bildirish huquqi, ijtimoiy himoya, munosib turmush darajasi – bularning barchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkam huquqiy kafolatlar bilan ta'minlandi. Eng muhimi, davlatning barcha organlari endilikda "xalq uchun xizmat qiluvchi tizim" sifatida qayta shakllanmoqda.

Davlat bosh islohotchiga aylandi, ammo islohotning bosh maqsadi bitta:

BOSH QOMUSIMIZDA INSON QADRI

O'zbekiston yangi davrga dadil qadam qo'yayotgan bir pallada 2023-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri milliy taraqqiyotning huquqiy poydevorini qaytadan tiklab berdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu Konstitutsiya shunchaki qog'ozdagi hujjat emas, balki xalqning orzusi, jamiyatning maqsadi, davlatning mas'uliyati mujassam bo'lgan ma'naviy-siyosiy bitikdir.

odamlar hayoti yaxshilansin, yoshlar kelajakka ishonch bilan qarasin, fuqarolar o'z huquqlarini erkin amalga oshirsin.

Yangi Konstitutsiyada ilk bor O'zbekiston "ijtimoiy davlat" deb belgilandi. Bu juda muhim siyosiy va huquqiy qadam. Chunki ijtimoiy davlat deganda, fuqarolar, ayniqsa yordamga muhtoj qatlamlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadigan jamiyat tushuniladi.

Yangi Konstitutsiyada quyidagi normalar kuchaytirildi:

- har bir fuqaroga munosib turmush sharoiti kafolatlanishi;
- ishsizlikning oldini olish bo'yicha davlat mas'uliyati;
- bolalar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar huquqlarini qo'shimcha himoya qilish;
- ijtimoiy yordamning minimal kafolatlari;
- sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatdan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bu tamoyillar bugungi kunda nafaqat qog'ozda, balki hayotda o'z aksini topmoqda. Eng katta yutug'i yoshlar, talabalar uchun yaratilayotgan sharoitlarning tubdan yaxshilanishidir.

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi yoshlar va talabalar manfaatlarini alohida e'tiborga oldi. Chunki yoshlarsiz taraqqiyot bo'lmaydi, bilimga ega avlodsiz kelajak bo'lmaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada

yoshlar huquqlari mustaqil bo'lim sifatida belgilanishi ham bejiz emas.

Konstitutsiyada ta'limning barcha bosqichlari uzluksiz bo'lishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi qat'iy belgilandi. Endilikda oliy ta'limga kirish imkoniyatlari yil sayin kengaymoqda, qabul kvotalari keskin oshirilmoqda, kontrakt to'lovlarini to'lashda imtiyozlar ko'paymoqda, kambag'al oilalar farzandlariga davlat tomonidan to'liq yoki qisman to'lov qilib berish amaliyoti kuchaytirildi.

Bu Konstitutsiyada belgilangan "har bir insonning ta'lim olish huquqi" tamoyilining amaliy ifodasidir. Talabalar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlov tizimi kuchaydi. Yangi Konstitutsiya talabalar ijtimoiy himoyasini alohida qayd etdi. Natijada talabalar yotoqxonalarini soni ko'paytirildi va qurilish davlat dasturiga kiritildi, kredit asosida o'qish tizimi takomillashtirildi, ijarada yashovchi talabalar uchun kompensatsiya mexanizmi joriy etildi, talabalar uchun stipendiyalar miqdori muntazam oshirilmoqda, qolaversa xorijda o'qimoqchi bo'lgan talabalar uchun davlat grantlari soni ko'paydi.

Talabalar uchun eng katta muammo – o'qishdan keyingi ish masalasi. Yangi Konstitutsiyada yoshlarning bandligi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yo'nalish sifatida belgilandi. Amalda esa:

- "Yoshlar daftari" orqali ish bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi;
- talabalar uchun amaliyot joylari ko'paytirildi;
- IT, tadbirkorlik, kasb-hunar yo'nalishlarida bepul o'qitish dasturlari joriy qilindi;
- bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashishini qo'llab-quvvatlash dasturlari yaratildi.

Yangi Konstitutsiya yoshlarning siyosiy faolligini oshirishga alohida urg'u beradi. Bugun yoshlar jamoatchilik kengashlari tarkibiga qo'shilmoqda, davlat organlari huzuridagi muhokama va takliflarda faol qatnashmoqda va shu bilan birga startaplar, innovatsiyalar, volontyorlik harakati orqali jamiyat hayotida muhim kuchga aylandi.

Konstitutsiyaning yangi tahriri aslida biz orzu qilgan taraqqiyotning huquqiy xaritasidir. Unda birgina so'zning o'zi butun mazmunni ifodalaydi: **INSON**.

Bugungi yoshlarni qo'llab-quvvatlash ertangi O'zbekistonni kuchli qilishdir. Shu bois yangilangan Konstitutsiyada yoshlarning huquqlari, ta'lim olishi, mehnat qilishi, o'z fikrini erkin aytishi, ijtimoiy himoyaga ega bo'lishi davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Konstitutsiya qog'ozda emas, hayotda ishlaydi kerak. Va bugun shuni bemalol aytish mumkin: Yangi Konstitutsiya O'zbekiston yoshlariga imkoniyatlar eshigini yanada keng ochgan, ularning ertangi kuniga mustahkam ishonch bag'ishlagan hujjatdir.

D. BUZRUKOVA,
O. MAHMUDOVA,
Farg'ona davlat universiteti
professor-o'qituvchilari

Millat qahramonlari

40 YOSHIDA “XAMSA”NI YOZGAN NAVOIYNI NEGA KEKSAYGAN KO‘RINISHDA TASAVVUR QILAMIZ?

Millatning haqiqiy qahramonlari haqida mulohazalar

Ukam “Facebook”da har safar inglizlarning sehrigar Merlin obrazidan foydalanadi. Ko‘pincha suratlarini ilova qiladi. “Nega aynan Merlin?” deb so‘radim. “Merlinning aqli va muammoga yechim topishga ustaligi yoqadi” deb javob berdi u.

Serialni qayta-qayta ko‘rgan ukam Merlinning har bir harakatidan zavq olar, uning sehrigarliligiga emas, qahramonligiga oshiq edi.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda fikr aytish, turli foto-video yuklash, har xil bachkanaliklar bilan ommaning e‘tiborida bo‘lish urfga aylandi. Yoshlarimiz bu borada ancha faol. Ular mashhurlarga – film qahramonlari, futbolchilar, boylar, artistlar va boshqa kishilarga taqlid qiladi, shulardan iqtiboslar keltiradi. Ularning suratini virtual olamga joylab boradi.

Afsuski, ijtimoiy tarmoqda Beruniy yo Forobiy asarlaridan iqtibos keltiradigan, ilmiy qarashlarini muhokama qiladigan yoshlar juda oz. Nega?

Do‘ppini boshdan olib o‘ylab ko‘rsak, ko‘p yillar buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodini yoshlarga yetarli tanitish o‘rniga faqat qulog‘iga ularning nomini quyish bilan ovora bo‘ldik. Yana ota-bobomizni tanimaydi, bilmaydi deb o‘pkalaymiz. Millat o‘z qahramonlarini tanimas ekan, hech qachon qudratli bo‘lolmaydi. Odamlarga doim qahramon kerak. **“Haqiqiy qahramonlik qo‘lda emas, miya va yurakda”** degan edi amerikalik adib Herman Melvill. Bugun milliy tafakkurni uyg‘otish, turli “...parastlik” sindromlaridan xalos bo‘lish uchun tariximizning yorqin sahifalarini jamiyatga yuqtirish ehtiyoji bor. Buyuk allomalar, mumtoz shoirlar, dovyurak sarkarda-yu ma‘rifatli hukmdorlarimizni xalqqa qayta tanitish ziyolilar zimmasidagi ma‘naviy burch.

Zamonaviy kinoijodkorlar bir zamonlar qabila sardori bo‘lgan, nasl-nasabining tayini yo‘q kimsani ham qahramonga aylantirib yubora oladi. Tabiiyki, bu qahramon najotkor, qudrat sohibi o‘laroq, millionlab o‘smirlarning ko‘nglidan joy oladi. Jahon kino san‘ati ilm-u tafakkur namoyandalarini ham unutgan emas. “Google” dasturida biror tarixiy shaxsni qidirsangiz, hech bo‘lmasa, u haqda bitta kinoasar bor. Afsuski, biz – o‘zbeklar bu borada maqtana olmaymiz.

BUYUK AJDODLARIMIZ haqida o‘tgan XX asrda romanlar yozilib, filmlar ishlandi, spektakllar yaratildi. Biroq tarixiy-biografik janrdagi bu asarlar egizday bir-biriga o‘xshash. Davr va ijtimoiy muhit o‘xshashligi tabiiy. Ammo har bir ajdodimizning o‘z taqdiri, ijod yo‘li, g‘oyasi va albatta xarakteri bo‘lgan. Hozir bir qolipdagi zo‘rma-zo‘raki, badiiy talqini bitta o‘zanga qamalgan, bir-birini takrorlaydigan qahramonlar yaratish urfidan qolgan.

Deylik, yoshlarimiz Alisher Navoiyni qanday tasavvur qiladi? Ko‘pchilikning ko‘z oldida, avvalo, hassa tutgan, soch-soqoli oqargan, munkillab qolgan sallali chol qiyofasi gavdalanadi. Vaholanki, Navoiy bobomiz vafot etganda oltmish, “Xamsa”ni yozganda qirq yoshda edi. Bir o‘zbek o‘g‘loni sifatida Navoiyni munkillagan chol emas, ham jismonan, ham ma‘nan baquvvat, ruhan tetik, g‘ayratli shaxs bo‘lgan deb tasavvur etishga urinaman. Ne ajabki, har safar nuroniy chol siymosi xayolimda gavdalanaveradi.

Shu kungacha o‘zbek adabiyotida, kinosida yaratilgan asarlarni yo‘qqa chiqarish adolatsizlik bo‘ladi, albatta. O‘tgan asrda “Alisher Navoiy”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Ulug‘bek yulduzi”, “Abu Ali ibn Sino”, “Buyuk Amir Temur”, yaqin yillarda “Ibrat”, “Avloniy”, “Qo‘qon shamoli”, “Imom Abu Iso Termiziy” kabi tarixiy mavzudagi qator filmlar yaratildi. Turk ijodkorlari bilan hamkorlikda “Menkim, Jaloliddin” seriali suratga olindi. Lekin bu filmlar kutilganidek samara bergani yo‘q.

Adabiyot inson qalbini ifoda etsa ham odamzod ko‘rganiga ko‘proq ishonadi. Kinolar asosida esa baribir adabiyot yotadi. Tarixiy filmlar, albatta badiiy poydevori baquvvat asarga asoslanishi lozim. Ajdodlarimizning tarjimaiy holini bitta formulaga solib, asardan asarga ko‘chirish bilan maqsadga erishish qiyin. Birxillikdan qochish, tasavvurimizni birsidra tozalab olish, ajdodlarimiz bilan oramizni yaqinlashtirish hozirgi o‘zbek adabiyoti va kinosining muhim vazifasi deb o‘ylayman.

HAQIQIY VATANPARVARLIK qasidasi o‘laroq, tilga olinadigan Mel Gibsonning “Sheryurak” badiiy filmini hammamiz yaxshi bilamiz. Shotlandiya va Angliya o‘rtasidagi urushlarda afsonaga aylangan Uilyam Uollesning hayotidan ta‘sir lanib, suratga olingan mazkur filmda ko‘p epizodlar to‘qima bo‘lsa ham shotland o‘g‘lonlarining urushdagi matonati, vatanparvarligi va jasorati hanuzgacha millionlab qalblarni to‘lqinlantirib keladi. Mazkur film XV asrda Blaynd Harri degan so‘qir shoirning Uolles haqida yozgan dostoni asosida yaratilgan. Film ijodkorlari esa bitta personajni butun dunyoga vatanparvarlik timsoli sifatida taqdim eta bildi.

Nima bizning tariximizda Uolleslar yashamaganmi? O‘tmishimizning har bir sahifasida bir emas, ikki emas, o‘nlab Uolleslar bor-ku! Shunday ekan, nega Spitamen yoki To‘maris hayotini tomoshabinga professional darajada ko‘rsata olmaymiz? O‘n besh yilcha ilgari teleekranlarimiz karis tarixiy seriallari bilan to‘lib

toshgan edi. Oqibatda bolalarimiz karis qahramonlari bo‘lishni orzu qila boshladi. **O‘quvchilar Shiroq, To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi buyuk vatanparvarlarimiz haqida faqat darsliklarda o‘qishi yetarli emas.**

Dunyoda motivlar tugamagan, lekin syujet va g‘oya taqchilligi bor. Shunga qaramay, yaqin yigirma yilda qanchadan qancha qahramonlar o‘ylab topilmadi deysiz? O‘rgimchak odam, Chumoli odam, Ko‘rshapalak odam (*Betmen*), Terminator, Temir odam... sanayversak, ro‘yxatning adog‘i yo‘q. Eng qizig‘i, ular o‘ylab topilgan, bor-yo‘g‘i fantaziya mahsuli, xolos. Bizning tariximiz va folklorimiz esa Holliivudni yigirma-o‘ttiz yil tarixiy qahramon bilan ta‘minlashga yetib ortadi.

Yozuvchi tarixiy qahramonning hayoti va faoliyatini aks ettirmoqchi ekan, eng avvalo, individual mahoratga tayanadi. Uzoq asrlar sukunat ichra yotgan qo‘lyozmalar bilan suhbatlashadi, tarix qabristonidagi toshbitiklarni xolis o‘qiydi. Badiiyat ila tarixni hikoya qilish san‘ati esa oson emas. Badiiy asarning g‘oyasi – ildizi baquvvat bo‘lishi kerak. G‘oyasi bo‘sh asarning na badiiy qiymati, na estetik zavqi bo‘ladi. Tarixiy qahramonning g‘oyasi muhim! Biror katta g‘oya bilan bugungi odamlarning qalbiga ta‘sir ko‘rsatishi shart. Rus yozuvchisi Sigizmund Krjijanovskiyni bir gapi bor: **“Vatan tarixini yozishingiz uchun ikkita narsa bo‘lishi kerak: ham Vatan, ham tarix.**

O‘tmishingizni sevishingiz, qadimgi zamonning eng yomon faktlaridan ham yaxshilik izlashni o‘rganishingiz lozim. Tarix haqida badiiy asar yozishdan oldin mamlakatingiz tarixini bilishingiz, to‘liq material to‘plashingiz va shundan keyingina tarixiy asarda ketma-ket bo‘lib o‘tadigan voqealarni ko‘rib chiqishingiz mumkin”.

Jahon adabiyotida buyuk shaxslarga bag‘ishlangan biografik asarlar talaygina. Oddiy misol: Shekspir hayotiga bag‘ishlangan o‘ndan ortiq roman bor. Italian xalqining buyuk

shoiri Dante Aligeri haqida beshta roman yozilgan. Bu asarlarda Shekspir va Dante shaxsi turlicha talqin qilingan. Mazkur asarlar asosida bir nechta badiiy film ishlangan. Masalan, Uilyam Shekspir haqida o‘n uchta kino suratga olingan bo‘lib, ularda adibning butun umri tasvirlanmagan, hayotining muayyan bir davri badiiy tahlil etilgan. Film ijodkorlarining maqsadi Shekspir yoki Dantening hayoti haqida hikoya qilib berish emas, ularning g‘oyalarini jamiyatga yetkazish bo‘lgan. **O‘zbek adabiyotida esa tarixiy obrazlar ko‘pincha nuqsondan xoli qilib tasvirlanadi. Muallif asarda qahramonini to‘la himoyaga olib, biror xato qilishiga izn bermaydi.**

Bolaligimda rus yozuvchisi Klara Moiseyevaning Abu Rayhon Beruniy haqidagi “Beruniy yulduzlari” qissasini o‘qigandim. Asar bobomizning falakiyot ilmi bilan bog‘liq faoliyati, Ma‘mun akademiyasidagi muhit haqida tasavvur beradi. Qizig‘i, asar bosh qahramoni Beruniy emas, balki Yoqub ismli shogirdi edi. Bu yondashuv ham muallifning o‘ziga xos talqini, desak xato bo‘lmaydi.

Robin Hud haqida bilmagan odam yo‘q hisobi. Boylarning mulkini o‘marib, kambag‘allarga ulashadigan bu to‘qima qahramonning o‘zimizda ham muqobili bor – Namoz Pirimqul o‘g‘li. Xudoyberdi To‘xtaboyev u haqda “Qasoskorning oltin boshi” romanini yozgan. Lekin bu asar asosida film ishlanmagan. Hatto yaxshiroq targ‘ib ham qilinmagan. Aslida bunday asarlar yuz minglab nusxada chop etilishi, barcha maktablarga tarqatilishi, jamoatchilik orasida ko‘proq muhokama qilinishi zarur.

Bugun har bir ziyoli millat tafakkurining o‘sishi uchun qayg‘urishi – davr talabi. Buyuk ajdodlarimizning g‘oyalarini jamiyatga singdirish – zimmamizdagi burch. Bu vazifani sharaf bilan ado etish – katta saodat. Toki yoshlar qalbida Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi kabi sarkarda, Beruniy va Xorazmiy kabi olim, Navoiy kabi shoir, Mirzo Ulug‘bek kabi astronom bo‘lish istagi tug‘ilsin. Faqat nomini sanashni bas qilib, ulardan qolgan ma‘naviy xazina eshiklarini ochaylik, ulardan qolgan asl ganj bilan tanishtiraylik. Tarixiy shaxslarning yuksak badiiy talqini bugungi millat yoshlarida ajdodlarga nisbatan faqat faxr tuyg‘usini emas, ularga ergashish, joiz bo‘lsa taqlid qilish istagini uyg‘otsin.

Farzandlarimizni tariximiz bilan rasmana tanishtirmas ekanmiz, ular ko‘ngli dunyoning to‘qima qahramonlariga mahliyo bo‘lib qolaveradi.

“Nafing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf o‘zungga ko‘prakdurur”.

Xurshid ABDURASHID, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoir



Dolzarb mavzu



AXBORIY JAMIYATDA DAVLAT VA JAMIYAT XAVFSIZLIGI

Bugun jamiyatning biror jabhasini axborotsiz tasavvur eta olmaymiz. Yillar mobaynida ommaviy axborot vositalari takomillashgan sari axborot jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanganligini izohlashga hojat yo'q. O'zbekistonimizni yanada ravnaq toptirish uchun yurtimiz kundan kunga qanday katta yutuq va marralarni qo'lga kiritayotganiga, ommaviy axborot vositalari sohasida ham g'oyat muhim yangilanish va rivojlanish jarayonlari yuz berayotganiga, matbuotimizning hayot bilan hamnafas bo'lib borayotganini jamoatchiligimiz bilan his etgan holda ana shu o'zgarishlarning amaliy samarasiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Axborot tarqatishning tezkor usuli bo'lmish internetni rivojlantirish bo'yicha ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Buning isbotini yurtimizdagi yuzdan ortiq ommaviy axborot vositalarining internetda o'z veb saytlariga ega ekanliklari, oliy o'quv yurtlarida "internet jurnalistikasi", "axborot psixologik xavfsizligidan himoyalaniish" kabi maxsus fanlar o'qitilayotgani, shu yo'nalishda ijod qilayotgan jurnalistlar va mutaxassislarning soni tobora oshib borayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bugungi jahondagi globallashuv jarayonida turli xil buzg'unchilar dunyo tinchligiga va osoyishtaligiga, umumbashariy va milliy qadriyatlarga rahna solayotgani turli sohalarida va turfa jabhalarda namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda axborot-psixologik xavfsizlik masalalari ko'p hollarda alohida davlat yoki mintaqaviy-hududiy darajada o'rganilib, jamiyatning ajralmas bir qismi sifatida shaxs xavfsizligi masalalari e'tibordan chetda qolmoqda. Axboriy jamiyatda davlat va jamiyat xavfsizligi masalalarining dolzarbligi, bir tomondan, hozirgi zamonda jamiyat har qanday axborotni iste'mol qilishga tayyorligi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, axborotga bo'lgan ehtiyojning muntazam ravishda ortib borishida va ijtimoiy muhofaza tizimida axboriy himoya mexanizmlarining shakllanishida ko'rinadi. Bugun shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini kesimida hamda axborot sohada ularning muvofiqligi axborot-psixologik xavfsizlik masalalarini yanada dolzarblashtirdi. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchisining xavfsizligini ta'minlashni nafaqat

foydalanuvchining o'zi, balki muvofiq davlat organlari ham o'z zimmasiga olmoqda, fuqarolarni himoyalash yo'lida turli chiqishlar qilmoqda.

Agar bu ishlar amalga oshirilmasa, jamiyatda parokandalik va notinchlikni keltirib chiqaruvchi kuchlar maydonga chiqib, mazkur jarayonlarni faollashtirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonlarning oqibatlarini keyinchalik nazorat qilib bo'lmazligi mumkin. Shu sababli har qanday virtual xavfga qarshi kurash uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois internetdagi axboriy xurujlar tobora kuchayib, ularni o'rganish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, axborot-psixologik xavfning oldini olishga qaratilgan ilmiy qarashlarni tasniflash va tizimlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

XXI asrda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la xolis bo'lgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytilish mumkin. Globallashuv juda keng qamrovga ega jarayonki, "undan chetda turaman, menga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi" degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin va shunday bo'lyapti ham. Bunday g'ayriixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha o'zining salbiy tomonlari bilan ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq.

Bugungi kunda kibermakondagi muammolar va xatarlarning ko'payishi, kiberjinoyatchilikning keskin oshishi, onlayn

hujumlarning ortishi va dunyoda kibermakon rivojlanishining oldindan aytib bo'lmaydigan dinamikasi O'zbekiston Respublikasida kibexavfsizlikni ta'minlash uchun me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish zarurati borligini ko'rsatdi va kibexavfsizlik masalalariga yagona yondashuvni belgilash maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Kibexavfsizlik sohasida rivojlangan xorijiy davlatlar – Rossiya, Xitoy, AQSh, Qozog'iston va Singapur tajribalari o'rganilib, tahlil qilindi.

Fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida kibexavfsizlikni ta'minlashdagi muammolar va ularning yechimlari to'g'risida televideniye va radioeshittirishlar orqali ochiq muloqotlar olib borilmoqda, internet saytlarida fuqarolarga o'zlarini himoya qilishlari uchun murojaatlar yuborilmoqda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini salbiy axborot xurujlaridan himoya qilish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish, ma'naviy va axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash maqsadida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish ishlarining ustuvor yo'nalishlarini va asosiy prinsiplarini ishlab chiqishni davom ettirish, fuqarolarimizni, ayniqsa yosh avlodning bilimi, ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularning qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik, mas'uliyat, sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog'liq ishlarni jadallik bilan

davom ettirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir. Shu sababli yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdidlardan asrash masalalari e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, hozirgi globallashuv jadal avj olib borayotgan zamonda informatsiyalar har qanday to'siqlarni bartaraf etib, tez sur'atlar bilan hayotning barcha sohalariga kirib borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ochiq informatsion makonda ta'sir ko'rsatish imkoniyati orta borib, bunday ta'sir uchun asosiy nishon sifatida yoshlar, aholining ma'lumoti kamroq qatlami olinib, ularda yetarlicha bilimlarning bo'lmasligi, g'oyaviy qat'iyatning shakllanmagani axborot ta'sirlarga tez beriluvchanlikni yuzaga keltiradi. Axborot-psixologik ta'sirlar mamlakat hayotining barcha qatlamlariga yo'naltirilgan bo'lishiga qaramasdan, u, eng avvalo, inson psixologiyasiga, odamlarning ongiga yo'naltirilgan bo'ladi.

A. ERGASHEV,
Qurug'likdagi qo'shinlar
instituti Harbiy pedagogika va
psixologiya kafedrasida dotsenti

Ko'hna tarix

TURON YERLARIDA MO'G'ULLAR BOSQINI: DEHQONCHILIKKA KELTIRILGAN ZARBA VA UNING OQIBATLARI



Tarix sahnasida mo'g'ullar bosqini o'zining keng qamrovi va keskin oqibatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Turon mintaqasida ushbu istilo nafaqat siyosiy va ijtimoiy tartiblarni, balki mahalliy aholining eng asosiy faoliyati – dehqonchilikni ham tubdan o'zgartirib yubordi. Mo'g'ullar qo'shinlarining kirib kelishi bilan bir qator qishloq xo'jaligi sohalari susayib, yerlar buzildi, aholi ko'chib ketishga majbur bo'ldi. Shu bilan birga, bu chog'da dehqonchilik faoliyatining tiklanishi uchun qilingan harakatlar va qishloq xo'jaligining yangi sharoitlarga moslashishi ham tarixiy jarayonning muhim qismi bo'ldi. Ushbu maqolada mo'g'ullar bosqinining Turon dehqonchiligiga qanday ta'sir ko'rsatgani va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari batafsil tahlil qilinadi.

Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mo'g'ullar istilosi faqat siyosiy hayotgagina emas, balki iqtisodiy va madaniy sohalarga ham katta zarar yetkazgan. Ayniqsa, istiloning ilk bosqichlarida Turon o'lkasida dehqonchilik va bog'dorchilik an'anaviy rivojidan to'xtab, jiddiy tanazzulga uchragan.

Mo'g'ul hujumlari natijasida ko'plab dehqonlar o'z yerlarini tashlab ketishga majbur bo'lgan, unumdor dalalar esa ekilmay qolgan. Masalan, Ili vodiysida qadimdan shakllangan dehqonchilik madaniyati 13-yuzyillikning o'rtalariga kelib, inqiroz holatiga tushgan. Bu holat arxeologik topilmalar va yozma tarixiy manbalar orqali tasdiqlanadi.

O'sha davrda qishloqlar vayron bo'lgan, dalalar chorva podalari tomonidan payhon qilingan, bog'lar yo'q qilingan. Bundan tashqari, dastlab ekin maydonlari bo'lgan yerlarda ko'chmanchi chorvachilikka mos yaylovlar tashkil etilgan. Natijada 13-yuzyillikning so'nggi yillariga kelib, Ili vodiysi dehqonchilik emas, balki asosan chorvachilik bilan shug'ullanadigan hududga aylangan.

XUDDI SHUNDAY JARAYON Janubi-g'arbiy Yettisuvda ham yuz bergan. Bu yerda ichki nizolar, hokimiyat uchun bo'lgan kurashlar, qishloq va shaharlarning vayron bo'lishi tufayli 13-yuzyillik so'nggi hamda 14-yuzyillikning boshlarida, ayniqsa Talas vodiysida dehqonchilik an'analari butunlay yo'qolib ketgan.

Dastlabki vayronagarchiliklarga qaramay, mo'g'ul hukmdorlari keyinchalik bosib olingan hududlarda

iqtisodiy hayotni tiklash zarurligini anglab yetgan. Shu maqsadda ular Turonda, ya'ni Movarounnahr va unga tutash hududlarda davlat boshqaruvi tizimini yo'lga qo'ygan. Bu tizimda nafaqat mo'g'ullar, balki mahalliy turonliklar va hatto Xitoydan chaqirilgan mutaxassislar ham ishtirok etgan.

Bu orqali mo'g'ul xonlari, ayniqsa dehqonchilik ishlarini tartibga solishga alohida e'tibor qaratgan. Sababi oddiy: aholining, ayniqsa katta harbiy kuchlarning oziq-ovqat bilan barqaror ta'minlanishi davlat uchun muhim vazifa edi. Shu sababli ekin maydonlarini qayta tiklash, dehqonlarni avvalgi joylariga qaytarish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha aniq choralar ko'rilgan.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida ham dehqonchilik to'liq yo'qolmagan, balki asta-sekinlik bilan qayta tiklana boshlagan. Bu davrda ham avvalgi kabi yerga ishlov beruvchi aholi qatlamlari mavjud bo'lgan. Jumladan, "kadivarlar" deb atalgan dehqonlar yirik yer egalari, diniy arboblardan zodagonlarga qarashli yerlarda ishlagan. Ular aynan o'sha mulkdorlar uchun yer haydash, ekin ekish va hosil yig'ish bilan shug'ullangan.

Kadivarlardan tashqari, bog'lar va boshqa yer maydonlarida mehnat qilgan kishilar "muzori" deb atalgan. Biroq tarixiy hujjatlarda bu kadivar va muzoriylarning ijtimoiy holati haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ya'ni ular erkin odamlar bo'lganmi yoki qaram holatda yashaganmi – bu hali aniq emas, chunki buni tasdiqlovchi yozma manbalar topilmagan.

OLTIN O'RDA tarkibiga kiruvchi Turonning shimoliy va Xorazm hududlaridagi dehqonlar haqida eng ishonchli va qimmatli manbalar – Temur Qutlug'ning Xoja Bayram ibn Muhammadga yozgan yorliqlari hisoblanadi. O'sha yorliqlarda "sabanchi" va "o'rtoqchi" atamalari ostida ikki xil toifadagi dehqonlar haqida ham so'z boradi. Bu tasnif dehqonchilik sohasidagi ijtimoiy qatlamlarning murakkab bo'lganini ko'rsatadi.

14-yuzyillikda yashagan mashhur shoir va mutafakkir Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostonida Oltin O'rda xonadonining hayoti tasvirlanadi. Mazkur doston tarixiy yorliqlarda uchramaydigan ayrim atamalarga ham boy bo'lib, ayniqsa dehqonni ifodalash uchun turkiycha "ekinchi" so'zi ishlatilgani diqqatga sazovordir.

Bu atama doston matnida dehqonchilik mavzusini yoritishda, shuningdek o'sha davr jamiyatining ijtimoiy qatlami haqida qimmatli ma'lumot beradi. "Ekinchi" so'zi dehqonlarning kundalik mehnati va yer bilan bevosita bog'liqligini yanada jonli tarzda aks ettiradi.

TARIXIY MANBALARDA Naqshbandiya tariqatining vakillari bilan dehqonlar o'rtasidagi munosabatlar haqida keng ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, mashhur mutasavvuf Xoja Bahouddin Naqshband va uning ba'zi muridlari bog'dorchilik va dehqonchilik bilan faol shug'ullanganlari qayd etilgan.

Naqshbandiya tariqati o'sha davr ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynagan bo'lib, uning asosiy ijtimoiy tayanchi sifatida aynan dehqonlar

xizmat qilgan. Bu holat tariqatning jamiyatdagi ta'sirini yanada mustahkamlab, qishloq xo'jaligi va diniy hayotning uyg'unlashuviga olib kelgan.

Mo'g'ullar davrida yirik siyosiy ziddiyatlar, ayniqsa taxt uchun kurashlar, oddiy xalq, ayniqsa dehqonlar – kadivar va muzorilar uchun og'ir oqibatlarga olib kelgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, 1308–1309-yillarda mo'g'ul xonlari Kebekxon (*Qaboqxon*) hamda Bolig'u o'rtasida kechgan hokimiyat talashuvi ayniqsa Turon o'lkasidagi aholi uchun og'ir sinov bo'lgan.

Bu notinchliklar davrida dehqonlarga yuklatilgan majburiyatlar, ayniqsa harbiy yurishlar vaqtida qo'shinlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash talablari keskin ortgan. Natijada ko'plab dehqonlar bu yuklamalarga chiday olmay, o'z yerlarini tashlab chiqib ketishga majbur bo'lgan. Ularning hayotini saqlab qolish uchun ko'chishga, ba'zida esa boshqa hududlarga bosh olib ketishga qaror qilgan.

Bu voqealar o'sha davrga oid tarixiy manbalarda ham o'z aksini topgan. Ushbu yozma hujjatlar orqali o'rta asrlardagi siyosiy beqarorlik, ayniqsa taxt uchun bo'lgan kurashlar, oddiy mehnatkash dehqonlar hayotiga qanday og'ir ta'sir ko'rsatganini yaqqol ko'rish mumkin.

BU DAVRDA yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qaramay, Turonning serhosil hududlarida dehqonchilik faoliyati to'xtab qolmagan. Ayniqsa, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida turli xil ekinlar yetishtirilgan. Bu vohalar



iqlimining qulayligi tufayli ekinlar boshqa joylarga qaraganda tezroq pishib yetilgan, shuning uchun ular dehqonchilik markazlaridan biri bo'lib qolgan.

Asosiy ekin turi bug'doy bo'lgan. Dehqonlar bug'doyning turli navlarini, masalan, gandum obiy (*suvda yaxshi o'sadigan nav*) va gandum safedcha (*och rangli bug'doy navi*) kabi turlarini yetishtirgan. Bug'doydan tashqari, arpa va tariq kabi boshqa donli ekinlar ham ekilgan.

Shuningdek, boshqoli ekinlardan biri bo'lgan sholi ham ayrim hududlarda yetishtirilgan, bu esa o'sha davrda sug'orish tizimlarining mavjudligi va dehqonchilik madaniyatining ancha rivojlanganini ko'rsatadi.

Bu davrda ham Turon hududida nafaqat oziq-ovqat ekinlari, balki texnik ekinlar ham yetishtirilgan. Ularning ichida paxta alohida o'rin tutgan. Asosan, Samarqand va Balx atrofidagi yerlar paxta ekish uchun qulay bo'lgan hududlar sifatida ajralib turgan.

Shunga qaramay, bu yerlarda yetishtirilgan paxta butun mintaqaning ehtiyojini to'liq qondira olmagan. Bu holat paxtaning asosiy mahsulot sifatida hali keng miqyosda yetishtirilmagani yoki ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan bo'lganini ko'rsatadi.

TURON O'LKASI qadimdan dehqonchilik rivojlangan, serhosil hududlar sirasiga kirgan. Ammo mo'g'ul bosqinidan so'ng hududda ko'chmanchi va chorvador aholining soni oshib boradi, bu esa dehqonchilikning biroz susayishiga olib kelgan. Ayniqsa, yerlarning bir qismi yaylovlarga aylantirilgani dehqonchilik maydonlarining qisqarishiga sabab bo'lgan.

Shunga qaramay, dehqonchilik to'liq yo'qolib ketmagan. Turli

ekinlar bilan birga bog'dorchilik ham saqlanib qolgan. Bu davrda –uzum, anor, behi, olma, nok, o'rik, shaftoli, yong'oq va anjir (*qipchoqlar uni "batank" deb atashgan*) kabi mevali daraxtlar yetishtirilgan. Bu esa Turon o'lkasida bog'dorchilik madaniyati mo'g'ul istilosiga qaramay, baribir davom etganini ko'rsatadi.

O'rta asrlarda Turon aholisi nafaqat don va mevalar yetishtirish bilan, balki poliz ekinlarini parvarishlashda ham yuqori tajribaga ega bo'lgan. Ayniqsa, qovun eng ko'p yetishtiriladigan va iste'mol qilinadigan mahsulotlardan biri sanalgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, turonliklar qovunni yil bo'yi saqlash sirlarini yaxshi bilgan. Bu esa ularning qovunchilikda ancha ilg'or bo'lganidan dalolat beradi.

Qovunlar o'ta shirin, yoqimli hidli, serob va nisbatan arzon bo'lgan. Hatto ayrim navlarining shirasidan holva tayyorlash ham urf bo'lgan. Bu turdagi qayta ishlash usullari qovunning oziq-ovqat zaxirasi sifatida qadrlanganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, shaharlar va ularning atrofidagi yashovchi aholining o'z ehtiyojlari uchun sholg'om, karam va boshqa sabzavotlar ekkani ham ma'lum. Bu esa shaharlarda ham dehqonchilik va bog'dorchilik an'analari davom etganini bildiradi.

Dehqonchilik faoliyatini mehnatsiz tasavvur qilish qiyin, chunki u doimiy mehnat va maxsus vositalar talab qiladi. Mo'g'ullar davrida ham dehqonchilikda asosiy mehnat quroli sifatida belkurak keng qo'llangan.

Xorazm hududidagi 13-14-yuzyilliklarga oid tarixiy yodgorliklardan biri hisoblangan Aqchagelin makoni va Talayxonota karvonsaroyi qazishmalarida o'sha

davrda ishlatilgan belkuraklar topilgan. Ular to'rtburchak shaklga ega bo'lib, yuqori ikkala chekkasida quloqcha, ya'ni tutqich yoki ushlagich joylari mavjud. Bu belkuraklarni mahalliy aholi "kapcha" deb atashgan.

Bunday topilmalar dehqonchilikda qo'l mehnatining ahamiyati va an'anaviy asbob-uskunalarining asosiy o'rin tutganini yaqqol ko'rsatadi.

TURON HUDUDIDA qadimdan dehqonchilik, bog'dorchilik va qurilish ishlarida turli xil qo'l mehnat qurollari keng qo'llanilgan. Jumladan, ketmonlar juda muhim vosita bo'lgan. Xorazmning 13-14-yuzyilliklarga oid karvonsaroylari – Ajigeldi va Qo'shbuloq qazishmalaridan to'g'ri burchakli, yelka qismi gardishli va dami (*tig'i*) biroz aylanasiimon ketmonlar topilgan. Bunday ketmonlar faqat Xorazmda emas, balki O'rtor va Yangi Saroy hududlarida ham ishlatilgan. Ketmonning muhra qismida dasta (*ustki tutqich*) uchun ikkita mix kovshirilib berilgan. Asosan, bu ketmonlar ekinlarni chopiq qilish, ya'ni tuproqni tayyorlashda keng qo'llangan.

Qishloq xo'jaligida turli boshqoli ekinlar, beda, pichan va boshqa o'tlarni ekishda hamda ekinlarni begona o'tlardan tozalashda o'roqlar keng qo'llangan. 12-14-yuzyilliklarda temirchilar tomonidan o'roqlarning ishlab chiqarilishi va shakllanishi takomillashgan. Ularning tig'i oldingilariga nisbatan biroz aylanasiimon shaklga ega bo'lgan. Xususan, 12-13-yuzyillik boshlarida Amudaryoning chap sohilidagi qishloqlarda, jumladan Mizdahqon hududida aynan shunday takomillashgan o'roqlar qo'llanilgani tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Umuman olganda, mo'g'ullar bosqini boshlang'ich davrlarida dehqonchilik sohasida jiddiy orqaga surilishlar kuzatilgan. Bosqinning birinchi bosqichlarida ko'plab hududlarda qishloq xo'jaligi faoliyati susayib, yerlar ishlatilmay qolgani, aholi ko'chmanchi hayot tarziga o'tgani sababli dehqonchilik rivoji to'xtab qolgan. Biroq tabiiy ehtiyojlar va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli, ayniqsa Turonning mehnatkash, omilkor xalqi va mo'g'ullarning o'troqlashuv siyosati, shuningdek katta qo'shinlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash zarurati bu sohani qayta jonlantirishga sabab bo'ldi.

UZLUKSIZ HARBIY YURISHLAR va keng hududlarni boshqarish talab qilgan kompleks oziq-ovqat ta'minoti tizimi qishloq xo'jaligining samarali ishlashini taqozo etdi. Shu bilan birga, dehqonchilikda qo'l mehnati va an'anaviy asbob-uskunalar, ekinlarni parvarishlash, sug'orish va hosildorlikni oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Turon hududida qishloq xo'jaligi faoliyati o'zining eski o'rnini tiklay boshladi. Bu jarayon, ayniqsa Turonning serhosil yerlari, bog'dorchilik va mevali daraxtlarning yetishtirilishi orqali yaqqol namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, mo'g'ullar istilosi dastlab qishloq xo'jaligi sohasida muammolarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, oxir-oqibat ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi va siyosiy boshqaruvning barqarorlashuvi sababli dehqonchilik va bog'dorchilik yana o'zining rivojlanish yo'lini topdi.

Zafar SHAMSIDDINOV,
O'zbekiston
Fanlar akademiyasi
Tarix instituti



Chegara qo'shinlarida



“SARHAD SADOSI” — G‘OLIBLAR ANIQLANDI

“Sarhad sadosi” ko‘rik-tanlovi – bu Vatan chegaralarini matonat bilan qo‘riqlayotgan yurt himoyachilarining qalblaridan taralayotgan kuy-qo‘shiqlar namoyishi. 2023-yildan buyon an‘anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan ushbu ko‘rik-tanlovning joriy yildagi mavsumida 30 nafardan ortiq Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo‘shinlari harbiylari ishtirok etdi.

Sarhadlarimiz himoyachilarining jangovar ruhini yanada oshirish, yangi iste‘dod sohiblarini kashf etgan holda, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘tkazilgan ushbu tanlovda harbiy xizmatchilar “Saf qo‘shiqlari”, “Estrada qo‘shiqlari” hamda “Lirik qo‘shiqlar” kabi uchta yo‘nalishda o‘z ijodlarini namoyon etdi.

Ta‘kidlash joizki, har uchala yo‘nalishda ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar ham harbiy-vatanparvarlik, ezgulik va insoniylik tuyg‘ularini tarannum etib, ishtirokchilar nafaqat qo‘shiq kuylash, balki turli cholg‘u asboblari chalish mahoratlari bilan ham barchaga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

Qatnashchilarning har bir yo‘nalish bo‘yicha chiqishlari

o‘zbek san‘atida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan hakamlar hay‘ati tomonidan xolisona baholab borildi.

– Bunday tanlovlar, albatta, bo‘lishi kerak. Sababi san‘atga qiziqqan-u, ammo bu sohada tahsil olmagan ishtirokchilarimizning, muhimi, ular shunchaki ishtirokchilar emas, qo‘lida qurol tutib Vatan sarhadlarini himoya qilayotgan harbiylarimizning o‘z jangovar xizmat vazifalaridan ortib, qo‘shiq kuylashlari, katta maydonda yurak yutib mana shunday ajoyib chiqishlar qilishi har qanday tahsinga sazovor. Biz, hakamlar hay‘ati a‘zolari bugun maza qilib qo‘shiqlarni tingladik, chunki qatnashchilar bir-biridan rang-barang repertuarlar bilan barchani xushnud qildi. Ayniqsa, muddatli harbiy xizmatchi, oddiy

askar Ubaydullo Jo‘raqulovning surxoncha baxshichilik yo‘nalishida aytgan termalari e‘tiborimni tortdi. Chunki u tomoshabinlar va biz hakamlarga qarab joyida improvizatsiya bilan kuyladi, bu esa katta mahoratni talab qiladi. Qolaversa, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Artur Beynazarovning ham tor chertib vatanparvarlik yo‘nalishidagi qo‘shiqlarni, xorazm termalarini kuylashi bizga juda manzur bo‘ldi, – deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Izzatilla Ibrohimov.

Yorqin taassurotlar, qizg‘in bahs va munozaralarga boy tarzda o‘tgan tanlov yakunida yig‘ilgan ballar umumlashtirilib, g‘olib va sovrindorlar maxsus diplom hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

– “Saf qo‘shiqlari” yo‘nalishida birinchi o‘rinni egalladik. Bu, albatta, bizga quvonch bag‘ishlashi bilan birga zimmamizga katta mas‘uliyatni ham yuklaydi. Kelgusida kuch tuzilmalari miqyosida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovga yaxshi tayyorgarlik ko‘rib, yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritishga harakat qilamiz, – deydi tanlov g‘oliblari Hasan va Husan Omonovlar.

Albatta, bu kabi tadbirlarning muntazam ravishda o‘tkazilishi yosh iste‘dodlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijodiy imkoniyatlarini namoyish etish orqali harbiy xizmatchilarga jangovar ruh bag‘ishlab, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash borasidagi fidoyiliklarini yanada oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari



Harbiy san'at

AMIR TEMUR JANGLARIDA STRATEGIK HUDUD

Jahon miqyosida ulkan iz qoldirgan buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Amir Temur hayoti va faoliyati xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud. Mazkur davrga oid ilk manbalardan biri bu fiqhshunos olim G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning "Ro'znomayi g'azovoti Hindiston" ("Hindistonga yurish kundaligi") asari hisoblanadi. Manbada asosiy e'tiborni tortadigan jihatlaridan biri bu Amir Temur tomonidan hudud (jang maydon)larni o'rganish va uning barcha xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'shinini harakatlantirganiga alohida urg'u beradi.



Tarixdan ma'lumki, har bir sarkarda o'zining harbiy yurishlaridan oldin u jang olib borish hududini sinchkovlik bilan o'rgangan. Asosan, jang maydoni va uning atrofiga e'tiborini qaratgan.

Jang maydoni va uning atrofidagi hudud elementlari yoki xususiyatlari jangovar harakatlarga o'z ta'sirini ko'rsatibgina qolmay, balki u qo'shinlar kuchini oshirishga yoki pasaytirishiga sabab bo'ladi. Urushlar tarixidan shunday kurashlarni misol keltirish mumkin, unda sarkardalar jang olib borishda joy xususiyatlaridan mohirona foydalangan holda kuch jihatdan bir necha barobar ustun bo'lgan dushman ustidan g'alaba qozongan.

Jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishi qo'shinlarning yuksak jangovar mahorati, ularning har qanday joyda jang qila olish qobiliyati, kurashlarda hududlar tabiiy sharoitini sinchiklab hisobga olish va g'alabaga erishish maqsadida ulardan puxtalik bilan foydalanilgani bilan bog'liqdir.

O'z davrining yengilmas sarkardasi, davlat arbobi sohibqiron Amir Temurning harbiy qo'shinga qo'shgan hissasi, uning faoliyati, harbiy yurishlari, o'tkazgan muhorabalari hamda undagi jang maydoniga bo'lgan asosiy e'tiboriga nazar tashlash orqali kerak bo'lgan zarur ma'lumotlarni olamiz.

Amir Temur jang o'tkaziladigan joyning asosiy taktik xususiyatlariga – joyning o'tish imkoniyati, kuzatish sharoiti, niqoblanish va himoya xususiyatlari, joydagi o't ochish sharoitlariga e'tibor bergan. Qo'shin bilan faslning va kunning qaysi paytida jang maydoniga kirishni baholagan va rejalashtirgan. Ushbu keltirgan mezonlarni bir qator misollarda ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

1356-yili Amir Qazag'onning Xurosonga yurish davomida, 21 yoshli Temurni yo'l boshlovchi (*hirovul*) qilib tayinlaydi. Yosh Temur Gozurgoh yerida joylashgan bir balandlik ustiga chiqib, jang olib boriladigan joyni ko'zdan kechirib, Amir Qazag'onga joyning topografik elementlarini va past-balandligini, joyning taktik xususiyatlarini ko'rsatgan hamda quyoshning holatini ham hisobga olgan. Quyosh Amir Qazag'on qo'shinining orqa tarafidan chiqib, dushman ko'zlarini qamashtirgan.

Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida "Va buyurdimki, amir ul-umaro urush maydonini tanlashda (*quyidagi*) to'rt narsani nazarda tutsin":

birinchisi – u yerning suvga uzoq-yaqinligi;

ikkinchisi – askar saqlaydigan yerning xavfsizligi;

uchinchisi – g'anim lashkari turgan yerdan teparoqqa joylashishi va oftobga ro'baro' bo'lmasligi, toki quyosh shu'lasi sipohiylar ko'zini qamashtirmasin;

to'rtinchisi – urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo'lishi lozim".

Ushbu keltirilgan iqtibos asosida Amir Temur jang maydoniga asosiy qo'shinini kirishidan oldin hududni sinchiklab o'rganish zarurati haqida o'z sarkardalariga vazifa sifatida qo'yganini ko'rish mumkin.

Qunduzcha bo'yidagi jangda 1391-yil 18-iyun – Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qildi. Har ikki tomondan 200 mingdan ortiq askar ishtirok etgan. Amir Temur jang boshlanmasdan oldinroq tashabbusni qo'lga oladi va To'xtamishni o'ydim-chuqur joylar (*notekis joy relyefi*) hamda daryo hosil qilgan jarliklar (*o'p'qonlar*) orasidagi noqulay joyda qo'shin tuzishga majbur etgan.

Amir Temur dushman qo'shinlarining ko'ngliga xavf solish, qo'rqitish, chalg'itish va o'zining kam sonli jangchilarini ko'p qilib ko'rsatish maqsadida joyning topografik elementlaridan juda ustalik bilan foydalangan. Dushmanga yaqin joylardagi qo'mondonlik tepaliklarga chiqib, har joylarda o't yoqishni yoki har bir otliqqa ikkitadan daraxt shoxini yoniga ositirib bog'latib, yo'lga tushishni va joyning tuproq qatlamida chang-u to'zoni osmonga ko'tarilganini ko'rib, ko'p lashkar kelayotgan ekan deb ishontirish tadbirlarini ishlab chiqqan hamda qo'llagan.

Har bir jangda yil fasli, kunning qaysi qismi va ob-havo sharoitlari hisobga olingan. Lekin shunga qaramasdan "Loy jangi"da (1360-yil 16-iyun) to'satdan havo o'zgardi: osmonni bulut qoplab, yomg'ir yog'a boshlaydi. To'nlar va etiklar suvga g'arq bo'ldi, sallalar boshga og'irlik qilib, loy va balchiqning ko'pligidan otlar joyidan qo'zg'alay qolishgan.

1375-yil 26-dekabrda Amir Temur qo'shinlari Mo'g'ulistonga yurish qilganda Qatavon mavzesiga yetganida qahraton qishning sovug'idan ko'p odamlar va ot-ulovlar nobud bo'lgan, (*hattoki tomirlardagi qon muzlab qolardi*). Qo'shinning jang olib borish qobiliyati pasayib ketgan, jangchilar, otlar va chorva hayvonlarini issiq joylarda saqlab turish imkonini kamaygan, shamollash kasalliklari oshib, jangchilarning muzlab qolishi ham kuzatilgan. Qatavon mavzesi tuproqlari zarrachalari mayda bo'lgan, uning namlikni o'ziga shimishi, muzlashi ham chuqur bo'lmaydi va tezligi ham sekin bo'lgan. Misol uchun, qumli tuproqlar nisbatan 2–3 barobar tezroq va chuqurroq muzlaydi. Loyli yerlarning chuqurlik muzlanishi 25 foizga qora yer va torflarga ko'ra ko'p bo'ladi. Yerlarning muzlanishi hech qachon yer ostidagi suvliklarga yetib bormaydi, yerosti suvlaridan foydalansa bo'ladi.

Shu sababli Amir Temur qo'shinlari Samarqandga qaytib boradi va ikki oy davomida yurish to'xtatib turilgan.

1402-yil 20-iyulda Amir Temur bilan Usmonli turk sultoni Boyazid I Yildirim qo'shinlari o'rtasida Anqara yonida jang bo'lib o'tdi. Unda har ikki tarafdan 200 mingdan ortiq askar qatnashdi. Harbiy sohani takomillashtirish hamda Kichik Osiyoga qilingan harbiy yurish va Anqara jangining natijalari sifatida muhim asosiy ko'rsatkichlardan biri jang qilish uchun qulay pozitsiya va joyning tanlanishi edi.

Joyning jangovar harakatlarga ko'rsatadigan ta'siri jangovar vazifa fonida belgilanadi. Joy o'z-o'zidan qo'shinlar jangovar harakatlar muvaffaqiyatiga yoki dushman kuchini qirqishga garov bo'la olmaydi, bunda komandirlar tomonidan joy to'g'ri baholanganida va uni jangovar vaziyatda mohirlik bilan qo'llay olgandagina yuqorida ko'rsatilgan muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Birgina joyning o'zi jangda vazifani muvaffaqiyatli bajarishga zamin yaratishi, boshqa holda esa vazifani bajarishni murakkablashtirishi mumkin. Masalan: tog'li hududda mustahkam mudofaa janglarini olib borishga qulay imkoniyat yaratsa-da, bunday joyda hujumga o'tish murakkab hisoblanadi, chunki tog'li hududda operativ sig'im tekislikka nisbatan kichik hamda

hujumda ishtirok etadigan qo'shinlar tarkibini chegaralaydi.

Amir Temur qo'shinlari Xorazmga yurishlar qilgan (1374-yil, mart va 1377-yil, mart), albatta bu yurish harakatlari davomida cho'l hududlardan o'tishga to'g'ri kelgan. Cho'l sharoitida qo'shinning harakatlanishi uchun asosiy to'siqlar sochiluvchan qumlar va barxanlar mavjud bo'ladi. Yilning quruq vaqtlarida barxanli va qumliklarning past-balandliklaridan o'tish qiyin hududlar qatoriga kiradi.

Yoz va bahorda yog'ingarchiliklardan so'ng qumliklar zichlashadi va unda harakatlanish imkoniyati ortadi. Loy yuzasi esa aksariyat yomonlashib, yilning namgarchilik mavsumida o'tish qiyinlashadi. Eng asosiysi, cho'l hududida joylashgan suv resurslari, ya'ni quduqlarning o'rni, suvning tozaligi va chuqurligi, suv hajmi muhim o'rin tutadi (*Qizilqum cho'lidagi quduqlarning chuqurligi odatda, 5 metr dan 200 metrgacha bo'lib, ularning suv hajmi sutkasiga 3-5 kub metrga yetadi. Barcha suv manbalari sho'rxok, kam hollarda o'ta sho'r bo'lgani uchun unda ko'p miqdorda zararli aralashmalar va mikroblarni tashish xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun bu suvlarni faqatgina tozalangan (qaynatilgan)dan so'nggina iste'mol qilingan*). Shu sababli cho'l hududlarida alohida yo'nalish bo'ylab yo'l yoqalarida (*karvon yo'llari*), asosiy hududlarda yoki suv ta'minoti bor yo'llarda harakatlanish maqsadga muvofiq hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davrida jangga tayyorgarlikda joyni oldindan yaxshi o'rganish juda muhim sanalgan. Qo'shin borib o'tadigan yo'llar, jang bo'ladigan hudud va undagi tabiiy yoki inson tomonidan qilingan to'siqlar avvaldan ko'zdan kechirilgan. Bugungi kunda ham jang maydonining umumiy ko'rinishi, harakat qilish imkoniyatlari, kuzatish va yashirinish sharoitlari shu tarzda aniqlanadi. Shu sababli joyni har tomonlama o'rganish va razvedka qilish har qanday davrda bo'lgani kabi hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

**Podpolkovnik
Farhodjon XODJIXODJAYEV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti o'qituvchisi**

Oydinlar tavsiya etadi

DUNYOGA KITOBLAR ORQALI BO'YLARDIK



“Bek! Bu Boburshohning o'zi bilan olib ketmagan yarim yetim qiziga shunchalik jonfido qilib nima qilasan? Bir Boburshohning zuryodi demasang, na davlati, na mamlakati bor! Topib bersang, shohimiz meni ham, seni ham tillaga ko'madi. Malikani bergin-da, istasang Boburshohingning yoniga jo'na, istasang makoningda qarilik gashtini sur!

BEK. Qoraxon! Senda na or bor, na nomus bor. Goh Eron shohi xizmatidasan, goh Xuroson shohining. Kim oldingga suyak tashlasa, shuning qo'lini yalaysan! Mening ota-bobolarim temurzodalarg'a sadoqat ila xizmat qilg'on. Orim-nomusim qasamyodimg'a sadoqatdur! ...Farzandlarimg'a va barcha meni so'rag'onlarga aytingizki, neki jangga kirg'on bo'lsam, el uchun, Vatan uchun kirdim, neki xatti-harakat qilg'on bo'lsam or uchun, nomus uchun qildim!”

Bu parcha taniqli rassom O'zbekiston Badiiy akademiyasi a'zosi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Gulnora Rahmonovaning “Sipohiyalar xonadoni” dramatik asaridan keltirildi. Mazkur asar turk tiliga tarjima qilinib, Turkiya jumhuriyati universitetlari o'quv qo'llanmasiga kiritilgan. Rassomning sara asarlari Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyi, O'zbekiston Milliy banki galereyasi mulkiga aylangan. U dunyoning bir qator davlatlarida shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan qimmatli asarlar yaratgan.

Shuningdek, ko'pdan ko'p zamondosh adib va shoirlar portretlarini ishlagan. Bularni keltirishdan maqsadimiz suhbatdan avval ijodkorni o'quvchilarimizga yanada yaqinroq tanitish.

Marhamat, rassom, adiba Gulnora Rahmonova suhbatidan bahramand bo'ling.

KITOBLAR VA MEN

Ko'klamda tug'ilganman. Samarqand (*hozirgi Navoiy*) viloyati Xatirchi tumanida o'sib-ulg'aydim. Ota-onam dalada ishlagan. Biz ham paxta dalasida (*ishlab*) o'sganmiz. Endi qishloqda yashash, bu doimiy biror yumush bilan band bo'lish degani. Yagona madaniy hayotimiz maktab edi. Endi maktabdan dala ishlariga tez-tez jalb qilinganlarimizni aytmay qo'yaqolay. Lekin o'quvchilik paytimizda maktab kutubxonasi doim ohanraboday o'ziga tortib turadigan sehrli maskan edi. Bizning bolaligimizda hozirgidek kompyuterlar, telefonlar yo'q edi, tabiiyki, dunyoni kitoblardan o'rganardik.

Bolaligimdan rasm chizishni yaxshi ko'rar edim. Hozir ham juda ko'p qizaloqlar chiroyli ko'ylaklar kiygan qizaloqlarning rasmlarini chizishadi. Men ham taxminan shu darajada edim. Mendagi rassomlik iqtidorini kimdir payqab, ruhlantirib turgan, deb aytolmayman.

Oltmishinchi yillarning oxirlari bo'lsa kerak, maktabimizga

Gennadiy Nikolayevich Voy degan bir o'qituvchi keldi. O'zi rus tilidan dars bersa-da, tasviriy san'at asoslaridan yaxshigina xabardor ekan, to'rt-beshta o'quvchini to'plab to'garak ochdi. Ha, deganda o'quvchilar dala ishlariga jalb qilinaverganidan to'garak ham muntazam ishlamasdi. Lekin imkon bo'ldi deguncha astoydil qatnashganman. O'sha kezlarda o'qituvchimiz “O'rgatgan narsani tez o'rganasan, Toshkentga borib o'qi”, deb maslahat berdi.

Nasib qilgan ekan, Toshkentga kelib, o'qib, yashab, ijod qilib yuribman.

Kitoblar bolalik dunyomizning nuri edi. Ko'p kitob o'qir edik. Yozuvchi Jeyms Grinvudning “Kichkina yo'qsilning asl tarixi” kitobini juda hayajon bilan o'qib chiqqanman. Asar shunchalik kuchli ta'sir qilganidan mazmuni va ayrim dialoglari hali-hamon yodimda. Agar shu kitobni topsam yana bir karra o'qib chiqqan bo'lar edim.

Talabalik paytlarim rus klassik yozuvchilarining asarlarini ko'p o'qidim. Lev Tolstoy, Dostoyevskiy, Gersen, Maksim Gorkiy asarlarini; Anna Axmatova, Marina Svetayeva, Mandelshtam, Iosif Brodskiy, Sergey Yesenin kabi shoirlarni berilib o'qiganman. O'zbekning ulkan adiblari Mirzakalon Ismoilov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov, Said Ahmad asarlarini sevib o'qiganman. Keyingi Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Xayriddin Sulton asarlari sevimli kitoblaringa aylangan. Usmon Azimning she'riyatini ham, prozasini ham birdek yaxshi ko'raman.

Hayotimni kitoblarsiz tasavvur qila olmayman. Ayni kunlarda matematik olim, Bobur va Navoiy ijodining katta bilimdoni, akademik

Abdulla A'zamning “Tafakkur va Tamaddun” nomli ilmiy-falsafiy asarini sevib mutolaa qilyapman.

Bugun yoshlarni kitob o'qishga jalb qilish borasida ko'p sa'y-harakatlar qilinyapti. Nazarimda bu boradagi samarali usullardan biri sifatida yoshlarning adiblar bilan uchrashuvlari yaxshi natija beradi. Yoshlar bilan jonli muloqotlarda asarlarining yozilish jarayonlari, yaratilish tarixi haqida muallifning o'zidan eshitish, kitoblariga dastxatlar olish, menimcha, adabiyotga qiziqish uyg'otishning yaxshi yo'llaridan biridir.

Vatan himoyachilariga qanday kitoblarni tavsiya etgan bo'lar edim? Albatta, o'zim sevib o'qigan, menga dunyoni tanitgan kitoblarni tavsiya qilaman. Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Behbudiydan o'qisalar, farzandlariga ham o'qib bersalar, nur ustiga nur. Zamondosh adiblarimiz ham go'zal asarlar yaratganlar, yaratilmoqda. Asli ular bilan zamondoshlikning o'zi bir faxr. Jahon adabiyotidan ham mukammal tarjima asarlar ko'p. Robindranat Tagor asarlari ham jahon adabiyoti durdonalaridan sanaladi. Uning asarlari sizga yana bir yangi dunyo ochishiga ishonaman.

Shu o'rinda rassom, adiba Gulnora Rahmonovaning “Marvarid shodasi”, “Yurak devoridagi chizgilar”, “Umrning uch fasli”, “Yolg'iz yo'lovchi” asarlari bilan tanishishni tavsiya etamiz. U tarjima borasida ham yaxshi ishlarga qo'l urgan. Ingliz yozuvchisi Dafna dyu Moryening “Rebekka” va “Reychel” nomli romanlarini o'zbek adabiy tiliga mahorat bilan chevirgan.

**Suhbatdosh
Inobat IBROHIMOVA**



Mulohaza

“POLK” HARBIY ATAMASI UMUMTURKIYMI YO...

“Odatda diviziya yoki brigada tarkibiga kiradigan va bir necha batalyon va rotadan tashkil topgan alohida harbiy qism, shu bilan birga lug’atda uning asli ruscha termin ekani ko’rsatilgan” (O’TIL, 2023, 770-b.).

Qaysi bir tilni, uning qaysi bir terminologik tizimini olib qaramaylik, ulardan har birining shakllanishi, qaror topishi va keyingi rivojida ona tilining o’z ichki imkoniyatlari muhim va asosiy rol ni o’ynaydi. Shuning uchun ham terminologik tizimlarni tadqiq etishga bag’ishlangan dissertatsiyalar va monografiyalarda bu masalalarga alohida e’tibor berib kelinadi. O’zbek tilining harbiy terminologiyasi, butun lug’at tarkibi singari, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari asosida shakllandi va keyingi taraqqiyot bosqichiga ko’tarildi.

Bugungi kunda o’zbek harbiy terminologiyasi o’zbek adabiy tilining ajralmas bir bo’lagi sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Fan-texnika taraqqiyoti bilan hamohang bu sohaga ko’plab yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi yangi terminlar kirib kelmoqda.

Tildagi lug’aviy birliklarning kelib chiqishini, etimonini aniqlash tilshunoslik oldida turgan vazifalardandir. Bugungi kunda ruscha yoki umumslavyancha deb qaralayotgan bir qator harbiy terminlar borki, ularning ildizlari o’rganilganda, bu so’zlarning umumturkiy ekani ma’lum bo’ladi.

Tarixiy haqiqatni to’g’ri yoritish, fan taraqqiyoti jarayonlarining haqiqiy manzarasini yaratishdek muhim vazifalar soha olimlarining oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Ayni ta’kidni o’zbek tilining harbiy terminologiyasi bilan ham bog’lash mumkin.

O’zbek tilining lug’at boyligida polk termini mavjud bo’lib, shu asosdan yangi terminlar hosil bo’lgan va ular

harbiy tushunchalarni ifodalashga xizmat qilib kelmoqda. Afsuski, mazkur terminning kelib chiqishiga ko’ra, qaysi tilga mansubligi hali-hanuz o’z yechimini topgan emas. Biz quyida polk terminining etimologiyasi haqida fikr yuritmoqchimiz.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”ga murojaat qilamiz. Unda “polk” terminiga shunday izoh berilgan:

“Odatda diviziya yoki brigada tarkibiga kiradigan va bir necha batalyon va rotadan tashkil topgan alohida harbiy qism, shu bilan birga lug’atda uning asli ruscha termin ekani ko’rsatilgan” (O’TIL, 2023, 770-b.).

Ajablanarlisi shundaki, polk termini ruscha bo’lsa, shu asosdan yasalgan polkovnik termini qanday qilib polyakcha bo’lishi mumkin? Afsuski, savollarga javob topish qiyin.

Mazkur terminning rus tilidagi izohi bilan qiziqar ekanmiz, 1972-yilda chop etilgan “Словарь русского языка” (568-bet) lug’atiga

murojaat etamiz. Ushbu lug’atdagi izoh o’zbek tilidagi izohga to’liq mos keladi.

1975-yili Moskvada chop etilgan “Kratkiy etimologicheskiy slovar russkogo yazika” nomli lug’atda “polk” termini rus tiliga polyak tilidan o’zlashgani aytilgan. Shu bilan birga, lug’atda ushbu terminning umumslavyancha ekani, german tillariga mos kelishi bayon qilingan. Qizig’i shundaki, izohning so’ngida mazkur terminning german tili bilan chatishib ketgani haqiqatdan uzoqligi ham alohida ta’kidlangan. Shunday bo’lsa, mazkur terminning “umumslavyancha” ekani qayoqda qoladi? Xullas, ushbu terminning etimonini aniqlash, uning asli qaysi tilga mansubligini belgilashda yuqorida ko’rsatilgan manbalarda aniq faktlar yetishmaydi.

Shu o’rinda tilimiz tarixiga, aniqrog’i, o’zbek tili harbiy terminologiyasi tarixiga nazar

Bu bo’lak chun qaytib bardilar (SHN, 211-bet).

O’zbek tili tarixi bo’yicha tadqiqotlar olib borgan taniqli tilshunos H. Dadaboyev harbiy tushuncha ifodalayotgan bōluk/bōlak termini yasama ekanini, u “bo’l” fe’li o’zagiga – -uk, -ak so’z yasovchi qo’shimchasini qo’shish orqali yasalganini ta’kidlaydi: bol+ak, bol+uk (Dadabayev, 1990. 16–20-b.).

Shu o’rinda yana bir faktga murojaat qilishga to’g’ri keladi: Sharafuddin Ali Yazdiy usmonli turk sultoni Yildirim Boyazid bilan jang qilish maqsadida yurishga chiqqan sobiqqironning Sivos sahrosida qo’shinni ko’rikdan o’tkazish jarayonini tasvirlash chog’ida Muhammad Sulton mirzo qo’mondonligidagi cherigning bir necha bo’lak (polk)lardan iboratligi, ular qizil, yashil, sariq va oq rangli qurol-yarog’lar, kiyimlar bilan qurollanganiga alohida diqqat qaratgan (Ahmedov, Bobobekov. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma, 1997, 257-b.).

Kofir kishisi xabardor bo’lub, o’trudin bo’lak-bo’lak yasab keldilar (BN, 290-bet).

Bu bo’lak chun qaytib bardilar (SHN, 211-bet).

tashlasak, mazkur muammoning yechimini topgan bo’lamiz.

Tilshunos L. Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” (SPb, 1871, T. I-II) kitobida eski o’zbek tilida “polk, gruppa, otryad” tushunchasi bōluk/bōlak harbiy termin orqali ifodalanganini ta’kidlaydi.

Boburning “Boburnoma” asarini kuzatar ekanmiz, bo’luk/bo’lak leksemalari “harbiy otryad, bo’linma” ma’nolarida ishlatilganining guvohi bo’lamiz:

Kofir kishisi xabardor bo’lub, o’trudin bo’lak-bo’lak yasab keldilar (BN, 290-bet).

Navoiy asarlarida otryad, bo’linma, diviziya kabi harbiy tushunchalarni ifodalagan ushbu termin “buluk” shaklida qo’llangan. Muhammad Solihning “Shayboniynoma”sida mazkur termin “bo’lak” shaklida ishlatilgani ma’lum bo’ldi:

Bundan xulosa shuki, Amir Temur qo’shini ham muntazam harakat qiluvchi ana shunday bo’laklarga bo’lingan.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib aytish mumkinki, qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o’zbek tili davridan iste’molda bo’lgan, harbiy tushuncha ifodalagan bōluk/bōlak termini slavyan tillariga fonetik o’zgarishga uchragan holda o’zlashgan: polk< bōluk <bōlak.

Polk terminining umumturkiy ekani hamma ham bilavermaydi. Vaholanki, mazkur termin xalqaro termin bo’lib, dunyo tillari leksikasidan allaqachon o’rin egallagan. Shunday ekan, dunyo tillari harbiy terminologiyasining shakllanishida turkiy harbiy terminlarning ham ma’lum hisssasi borligi quvonchli holdir.

Hamid YODGOROV,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent, harbiy atamashunos

Aks sado

YUTISHNING BITTA YO'LI

o'ynamaslik



Tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan hayotimizni bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kiyim-kechaklar-u bozor-o'char, taksi xizmatidan tortib taom buyurtirishgacha – hamma-hammasi internetda hozir-u nozir.

Qo'limizdagi gadjetlar eng qulay dastyorga aylangani, bu qulayliklar vaqtimizni tejashga xizmat qilayotgani rost. Ba'zan ishdan charchaganimizda miyaga dam berish ilinjida qo'limizdagi telefonga termilib, har xil o'yinlar o'ynaymiz. Bir qarashda ularning ziyoni yo'qdek, barcha-barchasi insonning foydasini ko'zlab ixtiro qilingandek ko'rinadi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni bo'lgani kabi bu mobil o'yinlarning ham inson hayotini butkul izdan chiqaradigan, hattoki ularning o'limiga sababchi bo'ladigan turlari bor. Xususan, bugungi kunda ancha shov-shuvlarga va ayrimlarning hayotiga nuqta qo'yilishiga sabab bo'lgan elektron qimor haqida eshitgan chiqarsiz.

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatar ekansiz, nafaqat xorij o'lkalarida, balki O'zbekistonda ham onlayn qimor (*1xbet*) o'yinlari qurboniga aylanib, o'zini osib qo'ygani, yoqib yuborgani haqidagi xabarlar yana ko'payib qoldi. Xabarlarining aksariyati boshida onlayn o'yinlarga qiziqib pul tikib, so'ng katta miqdorda qarzga kirib ketib, uni to'lay olmasdan o'z joniga qasd qilgani haqida. To'g'ri, hozir bunday o'yinlar oqibatida o'z joniga qasd qilish holatlari kamaygandir. Lekin ushbu "girdob"ning domiga tushib qolib, bo'ynigacha qarzga botib ketayotganlar hamon uchrab turibdi.

– Psixologik jihatdan odamlar nazdida u kuchli, hamma narsani eplaydi, yuta oladi. Vaholanki, uning o'yin ekani ichdan his etilmaydi va bu o'ynovchi kishining tasavvuriga ham kelmaydi, – deydi psixolog Gulira'no Erolova. – Shuning uchun ham bu kabi o'yinlarda mag'lub bo'lish yomon oqibatlarga olib keladi. Inson depressiyaga tushadi, stressni boshdan kechiradi. Odatda inson nimanidir kutsa, stress holatiga tusha boshlaydi. Va natija u kutmagandek chiqqanidan keyin bosh miyada depressiya kuzatiladi. Bu holatda inson o'zini boshqara olmasligi natijasida xatti-harakatlari oqibati haqida o'ylab ko'rmaydi. O'zini suitsid qilishgacha borishi mumkin. Shuning uchun adashibmi yo o'ylamasdanmi, totalizatorga kirib o'ynab, og'ir vaziyatlarga tushib qolgan insonlarga, avvalo, muammoni yaqinlariga aytishini maslahat beramiz. Chunki buni yashirish kerak emas.

Shu o'rinda savol tug'iladi: ayni qirchillama, tog'ni ursa, tolqon qiladigan yoshda qanday yurak yutib Alloh bergan aziz ne'mat – joniga qasd qilishgacha boryapti odamlar? Nima uchun shuncha qurbonlar, falokatlar bo'la turib, yana onlayn qimorni reklama qiluvchilar uchramoqda. Nahotki shuncha o'lim ularga dars bo'lmadi?!

GIRDOBIGA TUSHSANGIZ, TAMOMSIZI..

“Men ham onlayn qimordan kuygan odamman. O'zim Rossiyada, Nijnevartovskda ishlayman. Hammasi meni kimdir Telegrammda onlayn qimor o'ynovchilar kanaliga qo'shib qo'yganidan boshlangan. Oylik maoshlarimni yechmasdan kartamda saqlardim. O'ynashni boshlaganimda kartamda 420 ming rubl pul bor edi, ikki kunda 420 mingni 600 ming rubl qilib ko'paytirdim. Qiziqishim kuchayib, o'yinga ko'p-ko'p pul tika boshladim. Orada 10-15 ming rubl yutqazdim. Yutqazgan pullarimni qaytarib olishim kerak degan fikr meni tinch qo'ymasdi. Kechalari uxlamasdim. Oxir-oqibat bor-budimni o'sha qimor o'yinida yutqazib qo'ydim. Yutqazgan pullarimni qaytarish maqsadida ukamdan 450 dollar qarz olib, ko'p o'tmay uni ham boy berdim. O'zinga o'zim endi qaytib bu o'yinni o'ynamayman, deya qasam ichdim va shu yilning yanvar oyida Rossiyaga

ishga qaytdim. Pul to'play boshlashim bilan shayton yo'ldan urib, yana o'sha qimorga pul tika boshladim. Uyimga bir so'm ham pul yuborolganim yo'q. Kechagina yana 110 ming rubl yutqazdim. Ko'zinga hech narsa ko'rinmayapti. Ishimiz og'ir, qiynalib ishlab topgan pullarimni boy berdim. Jami halol ishlab topib yutqazgan pulim 530 ming rubl, dollarga hisoblasak, 7 300 dollardan oshiqroq pul degani. O'zbekistonda taqiqlash kerak bu la'nati o'yinni. Boshqa tavakkalchi yoshlar ham menga o'xshab kuyib qolmasin”, deb yozadi ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy sahifasida musofirlikda yurgan yigit.

“Boshida bir-ikki tanishlarim mening telefonimda o'yin programmasini o'rnatib oldi va o'ynay boshladi. Boshida o'zmoz yutib turgandi, keyin yutqaza boshladi va asabiylashdi. Keyin uning o'rnidan o'ynab yutqazgan summasiga teng miqdorda pul yutib berdim. Shu orada o'zim ham qiziqib ketdim. Buning qimor ekanini bilmasdim. Bir-ikki marta yutdim va to'satdan 1 mln so'm atrofida yutqazdim, keyin uni qaytarib olaman deb yana o'yinga kirib ketdim. Tanishlarim mening o'yinga judayam berilib ketganimni ko'rib: “10-15 kishi o'ynaganini bilamiz, lekin ularning yutgani yutqazganidan ancha kam”, deb qaytarmoqchi bo'ldi. Men esa har xil usulda o'ynab ko'rishda davom etdim. O'yinni boshlaganimga 5 oy o'tgan bo'lsa, shu vaqt ichida 50 mln so'm yutqazdim. Shu o'yinni o'ynaganimga rosa pushaymon qilaman. Shuncha pul yutqazishimni bilsam, o'ynamas edim. Bolalarimning rizqini qimorga tikkanimga afsusdaman”, deydi farg'onalik ayol.

Dahshatga tushishdan boshqa chora yo'q. Afsuski, bola-chaqali odamlar ham mana shu o'yin deb yarim kechagacha o'yinxonalarda umr o'tkazadi. Bolasi yig'lasa, ishi yo'q, onasi kasal bo'lsa, ishi yo'q, otasini pisand qilmaydi... Mana shu emasmi o'yinlardan olinayotgan samara. Bugungi kun jo'lomonlarini tayyorlash uchun tuyaning terisini boshga tortish shart emas. Shundoq telefon olib berib, nazoratsiz qoldirilsa bo'ldi. Oltinchi sinf bolasiyam qolganini amallaydi. Aytmatovning manqurtidan nima farqi bor ularning?

Bundan bir necha yil avval Toshkentda birinchi O'zbekiston iGaming Affiliate Conference konferensiyasi bo'lib o'tgandi. Tadbirning asosiy homiysi esa bukmekerlik kompaniyasi ekan. Ularning iddaosicha, onlayn qimor sportning rivojlanishiga yordam berarmish. Qiziq, yuzlab, minglab odamlarni xonavayron qilib, o'z joniga qasd qilishgacha sabab bo'layotgan narsa sportni rivojlantirishi mumkinmi?

QIMOR O'YINLARIGA NEGA RUXSAT BERILDI?

Prezidentimizning 2024-yil 19-apreldagi “Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan boshlab xalqaro tajribadan kelib chiqib sport sohasini, ayniqsa futbolni yanada rivojlantirish, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilgan.

Farmonga ko'ra, litsenziyalar asosida tashkillashtirilgan lotereya, internet tarmog'idagi o'yinlar va bukmekerlik garovlarida faqat 18 yoshga to'lgan O'zbekiston rezidenti va norezidentlari qatnashishi mumkin. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarni noqonuniy o'yinlarda emas, qonuniylarida ishtirok etishini ta'minlashdan iborat ekan.

– Noqonuniy qimor o'yinlarida qatnashib, o'z joniga qasd qilgan shaxslar haqida ko'p eshitganmiz. Bunday holatlar ularning huquqlari ta'minlanmagani uchun yuz bergan, – deydi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi mas'uli Nodir Jo'rayev. – Afsuski, odamlarda qimorbozlikka qaramlik bor. Ularning ehtiyojini qonunchilik qondirmagach, chet el platformalariga murojaat qilmoqda. Hozir har qanday mobil o'yinni ochsangiz, har ikkinchi reklamasida kazino yoki boshqa qimor o'yinlari chiqadi. Ular odamni o'ziga jalb qilaveradi. Xorijiy platformalarda qimor o'ynayotganlardan bir qismi bo'lsa-da, qonuniy yo'l bilan tashkil etilgan, fuqaro huquqi himoyalangan joyga borishiga ishonaymiz. Ularda “Men shu yerda o'ynayapman, davlat meni himoya qiladi, meni aldash ketmaydi, pulimni qaytarib beradi”, degan o'y bo'ladi. Hozir ko'pgina odamlar xorijiy platformalardagi qimor o'yinlarida o'ynab, yutgandek bo'ladi, lekin pulini ololmaydi. Bu og'ir oqibatlarga olib kelmoqda. Bu farmon bilan qimor o'yinlariga ruxsat berilyapti. Ammo uni o'ynashga hech kim majbur qilinmayapti. Farmonning asosiy maqsadi cheklolvar qo'yishdan iborat. Misol uchun, farmon chiqqanida siz bilan men tezda qimor o'ynashni boshlaganimiz yo'q. O'ynayotgan odam hozir ham o'ynayapti.

Xo'sh, mamlakatimizda bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarni noqonuniy o'yinlarda emas, qonuniylarida ishtirok etishini ta'minlash bo'lsa, bukmekerlik o'yinlarida 18 yoshga to'lgan O'zbekiston rezidenti va norezidentlari qatnashishi mumkin bo'lsa, unda nega bugun voyaga yetmaganlar ham bu illatning domiga tushib qolmoqda?

“OY”NING KO'RINMAS TARAFI

Mamlakatimizda bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilib, tizim tartibga solingan bo'lsa-da, yoshlar orasida sportga pul tikish (*betting*) ommalashib bormoqda. Oldingi yillarga qaraganda ushbu “girdob”ga tushib, o'z joniga qasd qilganlar kamaygan bo'lsa-da, millionlab qarzga kirib, topgan pulini ushbu “o'yinlar”ga sarflayotganlar kamaygani yo'q. Buning oqibatida oilaviy nizolar, yuqoridagi kabi turli ko'ngilsiz hodisalar yuzaga kelmoqda. Bu borada mutasaddilar tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilib, nazorat yanada kuchaytirilishi kerak. O'ylaymizki, tez orada bukmekerlik va totalizatorlik faoliyatini tashkil etish bo'yicha yangicha loyihalar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etiladi.

Nazarimda, bunday tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar orqali nafaqat kattalarni, balki yosh avlodni ham ishlamasdan boyib ketishga o'rgatib qo'yayotgandaymiz.

Ayniqsa, “Boriga baraka”, “Omad shou” kabi son-sanoqsiz “omadli” o'yinlarning ishqibozi kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa kelajak avlod uchun juda xavotirli. Katta pul tikiladigan tavakkalchilik asosidagi qimor o'yinlari esa yanada jiddiy o'ylashga majbur etadi. Negaki, ana shunday o'yinlar oqibatida insonlar o'z hayotiga nuqta qo'ymoqda. Xo'sh, siz nima deysiz?

Hozirgi zamonda tobora urchib, ko'payib borayotgan, har qanday ijtimoiy tarmoqdan foydalanmoqchi bo'lsangiz, lip etib, “O'ynang va millionerga aylaning” deya o'zini reklama qilayotgan qimor o'yinlaridan ehtiyot bo'lishimiz, yaqinlarimizni, farzandlarimizni bu kabi o'yinlar girdobiga tushib qolishdan saqlashimiz lozim. Aks holda...

Leytenant Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”

Bugunimiz qahramonlari

Hilpiragan bayroq ostida

umrbod esda qolgan lahza



Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida o'tkazilgan VI Islom birdamligi o'yinlari O'zbekiston terma jamoasi uchun muvaffaqiyatli yakunlandi. Yurtimiz sportchilari musobaqani 29 ta oltin, 35 ta kumush va 32 ta bronza medal, jami 96 medal bilan yakunlab, 57 mamlakat orasida 2-o'rinni egalladi.

O'zbekistonning ushbu yutuqlari orasida alohida sharaf bilan tilga olinadigan sportchi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili kichik serjant Nargiza Qochqorovadir. U nayza uloqtirish bahslarida 59,39 metr natija qayd etib, nafaqat oltin medalni qo'lga kiritdi, balki Islom birdamligi o'yinlari musobaqasi rekordini ham yangiladi. Bu natija uning shaxsiy rekordi sifatida ham qayd etildi.

RUHIY BARQARORLIK BILAN UDDALANGAN VAZIFA

Nayza uloqtirish mashg'uloti tashqi tomondan oddiy ko'rinsa-da, amalda juda katta jismoniy tayyorgarlik va kuch talab qiladi. Uzunligi 2 metr 30 santimetr, og'irligi 600 gramm bo'lgan nayzani 60 metr masofaga uloqtirish

ko'plab professional sportchilar uchun ham oson vazifa emas. Biroq Nargiza mazkur murakkabliklarni chetga surib, musobaqaga yuqori darajada tayyorgarlik bilan kelganini amalda isbotladi.

Shuningdek, yelka va tizzasidagi jarohat uning dastlabki urinishlariga ta'sir qilgan. Sportchining aytishicha, birinchi uloqtirish kutilganidek chiqmagan bo'lsa-da, beshinchi urinishda u o'zining eng yaxshi natijasini qayd etib, raqiblaridan keskin o'zib ketdi.

Natija e'lon qilingan zahoti uni birinchi bo'lib tabriklagan inson – onasi bo'lgan. Sportchi bu lahzani: "Quvonchim tanamga sig'masdi", deya eslaydi.

UMRBOD ESDA QOLGAN LAHZA

Nargizaning shohsupaga ko'tarilishi O'zbekiston bayrog'i qabul qilingan

kunga to'g'ri kelgani uning his-tuyg'ularini yanada to'lqinlantirib yubordi. U barcha olqishlar ostida boshi uzra baland hilpirayotgan bayroqqa qarab, ko'zyoshlarini tiya olmaganini yashirmadi. Bu g'alaba unga Turkiyada o'tgan V Islom birdamligi o'yinlarida qo'lga kiritgan bronza medaldan keyin bergan va'dasini yodga soldi: "Keyingi safar albatta birinchi o'rinni olaman", degan va'dani bajarish u uchun asosiy maqsad edi.

YOSHLIKDAN BOSHLAGAN ISTE'DOD

Nargiza sportga qiziqishi maktab davridan boshlanganini eslaydi. Jismoniy tarbiya darslarida tennis to'pini uzoqqa uloqtirish bo'yicha me'yor topshirilganda u har doim sinfdoshlaridan yuqoriroq natija ko'rsatardi. Hatto o'g'il bolalar bilan bellashgan paytlarida ham yuqori ko'rsatkich qayd etib kelgan. O'qituvchisi uning qobiliyatini ko'rib, onasiga murojaat qilar ekan: "Qizingizda alohida iste'dod bor, kelajakda chempion bo'ladi", degan. Shundan keyin oilasi uni sportga yo'naltirishga to'sqinlik qilmagan, aksincha qo'llab-quvvatlab turgan.

OLIMPIADA – ASOSIY MAQSAD

Nargizaning aytishicha, bugungi g'alabalar unga kuch va yangi mas'uliyat yuklagan. Uning asosiy maqsadi – kelgusi yil bo'lib o'tadigan Osiyo o'yinlarida yuqori natija qayd etish va Olimpiada o'yinlariga yo'llanma olish. Bunga erishish uchun sportchi tinimsiz mehnat, mashg'ulot va katta iroda talab etilishini yaxshi anglaydi.

"Bu yo'lda meni qo'llab turgan ota-onam, murabbiylarim, Yengil atletika federatsiyasi, Mudofaa vazirligi hamda Prezidentimiz ishonchi bor. Uni oqlash uchun bor kuch-g'ayratimni ishga solaman", deydi sportchi.

Nargiza Qochqorovaning Ar-Riyoddagi g'alabasi nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki O'zbekiston sportining jahon arenasidagi nufuzini yanada mustahkamlagan voqea bo'ldi. Sportchi barqaror mehnati, sadoqati va Vatan bayrog'iga bo'lgan muhabbati orqali katta marralarni zabt etish mumkinligini yana bir bor ko'rsatdi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"

Suitsid va ruhiyat

O' LIM

YAGONA CHORA EMAS!

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, deyarli har bir kishi hayotida bir marta bo'lsa-da o'z joniga qasd qilish haqida o'ylaydi. Nega shundayligi insonning ruhiy holati, ichki iztiroblari, tuyg'ular bosimi bilan bog'liq ekan. Aslida umr davomida tushkunlik, g'am-tashvish hammaning hayotida sodir bo'ladi. Lekin hamma ham o'z joniga qasb qilavermaydi-ku?



Chunki irodali inson qorong'i tun ortidan albatta tong otishini, hech bir ruhiy og'riq abadiy emasligini yaxshi anglaydi va hayotning qadriga yetib yashashga intiladi. Irodasiz, tez tushkunlikka tushuvchi kishilar esa negadir o'limni tez bo'yniga oladi. Nega? Ularning hayotdan bezdiruvchi qanday sabablar bor? Nima uchun inson og'riq va qiyinchiliklar oldida kurashish o'rniga taslim bo'ladi? Nima insonni umiddan voz kechishga olib keladi – tashqi omillarmi yoki ichki og'riqlarmi? **Asli suitsid ruhiy kasallik alomatimi?**

Xullas, savollar ko'p. Chunki o'z joniga qasd qilish mavzusi tabu, uni oila va do'stlar davrasida muhokama qilish odatiy hol emas. Ammo sukunat voqelikni o'zgartirmaydi, ba'zan esa vaziyatni yanada og'irlashtiradi – **odamlar suitsidga vaziyatdan chiqishning birdan bir yo'li sifatida qaray boshlaydi va buni amalga oshiradi.** Faqat ochiqlik, tushunish va qabul qilish kishilarni halokatli qadam tashlashdan to'xtatishga yordam beradi.

Suitsid, ya'ni o'z joniga qasd qilish butun dunyoda sodir bo'lib, hech bir millat, madaniyat, din, jins va ijtimoiy sinfga mansub shaxslarni chetlab o'tmaydi. Boshqa tug'ma omillar, masalan, ruhiyatning buzilishi va tug'ilishdagi anomalialar, surunkali yoki umrbod kasallik bo'lishidan qat'i nazar, depressiya ham o'z joniga qasd qilishga bo'lgan moyillikni oshirishi mumkin. **Butun dunyo bo'ylab suitsid bo'yicha mutaxassislar o'z joniga qasd qilish muammosi haqida fikr yuritmoqda, o'z joniga qasd qilish munosabatlarini va unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'plab omillarni o'rganyapti.** Ammo bu

tajribalarning barchasi odamlar nima uchun hayot bilan xayrlashishga qaror qilishlarini tushuntiruvchi hech qanday umumiy xulosa va keng qamrovli nazariyaga sabab bo'lmadi.

SUITSIDENT RUHIYATI

Depressiya va boshqa ruhiy kasalliklar suitsidning eng muhim xavf omillari orasida keng e'tirof etilgan. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'z joniga qasd qilgan kishilarning **98 foizi** ruhiy kasallikka chalingan. O'z joniga qasd qilish insonning ruhiy iztiroblardan xalos bo'lish istagi natijasi bo'lib, u insonning asosiy instinktlaridan biri – o'zini saqlash instinktni xiralashtiradi.

O'z navbatida, insonda ruhiy azob-uqubatlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, **ularni to'rtta katta guruhga bo'lish mumkin:**

- insonning atrof-muhit bilan ziddiyatlari (*oilada, maktabda, ishda va hokazo*). Shuningdek, muayyan vazifalarni bajarishdagi muvaffaqiyatsizliklar, hamkasblar, rahbar yoki xodimlar bilan nizolar, javobsiz sevgi, ajralish, kelishuvsiz nikoh, yaqinlarningning kasalligi yoki o'limi;

- insonning o'zidan qoniqmaslik hissi. Shuningdek, salomatlik – ruhiy va surunkali kasalliklar, jismoniy nuqsonlar (*nutq nuqsonlari, noqulaylik sifatida qabul qilingan tashqi ko'rinish xususiyatlari*), jinsiy qobiliyatsizlik;

- hayotning ma'nosini yo'qotish, yashashga rag'batning yo'qligi. Shuningdek, antisotsial inson xatti-harakatlari – jinoiy javobgarlikdan qo'rqish, uyatdan qo'rqish;

- moliyaviy va maishiy qiyinchiliklar.

Aslida bunday holatlar har qanday odamda hayotning turli bosqichlarida paydo bo'lishi mumkin, ammo hamma ham qiyinchiliklar tufayli o'zini o'zi o'ldirishgacha bormaydi. **Xo'sh, nega ko'pchiligimizni o'z jonimizga qasd qilishga undamaydigan holatlar boshqalarga bunchalik halokatli ta'sir qiladi?** Gap shundaki, ba'zi odamlar ta'sirchan bo'ladi va ular bunday holatlardan ruhiy tushkunlikka tushib qoladi. Bunda miyadagi biokimyoviy muvozanat buziladi va odam aniq fikrlash qobiliyatini yo'qotadi. Uning e'tibori shunchalik torayadiki, u o'z azoblaridan xalos bo'lish istagidan boshqa narsani o'ylamay qo'yadi.

Qolaversa, insondagi kuchli depressiya ham uni o'z joniga qasd qilishgacha olib boradi. Bunda u haqiqatan ham ruhiy kasallikdan aziyat chekadi va aynan shu holatda u yashashni istamay qoladi.

SUITSID VA AN'ANALAR

Mutaxassislar ta'kidlashicha, suitsidning biror millatga xos sabablari mavjud emas. Biroq oila instituti, urf-odat va axloqiy me'yorlar juda muhim o'rin tutuvchi patriarxal jamiyatlar uchun umumiy xususiyatlar bor. Shunday omillardan biri insonning kuchli his-tuyg'ularini ifoda etmaslik, dardini yashirish odatidir. Bunday muhitda insonning ruhiy azobini ochiq tan olishi yoki yordam so'rashi ko'pincha qiyin kechadi. **Chunki bolalar "oila sha'ni" har bir a'zoning shaxsiy hayotidan ham ustun ekaniga ishonch bilan tarbiyalanadi.** Natijada, masalan, turmushga chiqqanidan so'ng yangi oilada zo'ravonlikka uchrayotgan, ammo "ajrashish bilan ota-onamning obro'sini to'kib qo'ymay" deb o'ylagan yosh ayol ma'lum vaqtgacha shunday og'ir holatga chidashga majbur bo'ladi. Ba'zi hollarda esa chiqish yo'lini topolmaganlar ruhiy iztiroblar ta'sirida suitsidni yechim deb biladi. Bu jihat esa bizning og'riqli nuqtamizdir.

HAR YUZINCHI O' LIM U BILAN BOG'LIQ

Inson qanday holatda o'lim topishiga qaramasdan bu judolik marhumning yaqinlari uchun katta yo'qotish, fojia. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili bir millionga yaqin inson o'z joniga qasd qiladi. Bu degani – har yuzinchi o'lim suitsid oqibatida sodir bo'ladi. Ya'ni har **40 soniyada** kimdir dunyo bilan xayrlashadi.

Afsuski, bu ko'rsatkich keyingi yillarda bezgak, OIV/OITS, ko'krak saratoni yoki hatto urush va qotillikdan kelib chiqadigan o'limlar bilan teng

darajaga yetdi. Suitsid hozirgi kunda insoniyat uchun eng jiddiy ijtimoiy va ruhiy tahdidlardan biriga aylandi.

Ta'kidlash joizki, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida suitsid holatlari qotillikka nisbatan bir necha barobar ko'p. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'n baravardan yigirma baravargacha yuqori. Demak, suitsidga moyil insonlar hayotini tashqi tahdidlar emas, balki ularning ichki olamidagi og'riq, iztirob va sukut xavf ostiga qo'yimoqda.

U YOSH VA JINS TANLAMAYDI

O'z joniga qasd qilish yoshlar o'limining asosiy sabablaridan biri. Ammo bu suitsid keksa kishilarga qaraganda yoshlarda ko'proq sodir bo'lishini anglatmaydi. Chunki manbalarga e'tibor bersak, jahon miqyosida suitsidlarning **58 foizi 70 yoshdan** oshganlar tomonidan sodir etilgan (*har 100 mingdan 25 kishi*). Demografik jihatdan keyingi o'rinlarda **50–69 yoshdagilar** (*har 100 mingdan 14 kishi*), 15–49 yoshdagilar (*har 100 mingdan 11 kishi*) egallagan. Eng past ko'rsatkichlarni esa **5–14 yoshdagilar** ko'rsatgan. Demak, suitsid darajasi odatda keksa odamlar orasida yuqori.

Dunyo miqyosida o'z joniga qasd qilish darajasi ayollarga qaraganda erkaklarda ikki baravar yuqori. Suitsidning gender jihatlaridagi qiziq holat shundaki, o'z joniga qasd qilganlar orasida ayollar, uning oqibatida vafot etganlar orasida esa erkaklar ko'pchilikni tashkil etadi. **Bu holatni mutaxassislar shunday tahlil qiladi:** erkak kishi joniga qasd qilganda maqsadi o'lim bo'ladi, ayollarda esa ko'pincha kimnidir qo'rqitish, qasd olish, kimgadir nimaga qodir ekanini isbotlash bo'ladi. Shuning uchun ular suitsidga urinib ko'radi.

Aslida bu ham faraz, taxminlardan biri xolos. Chunki har bir suitsid ortida – o'zgacha taqdir, o'zgacha dard va o'zgacha sukut yashiringan bo'ladi. Hech bir raqam, hech bir fakt insonning kechinmasini to'liq ifoda etolmaydi. **Yana bir narsani unutmaslik lozim:** hech qanday iztirob yoki sinov inson hayotidan qimmatli emas. Zero hayot insonga bir marta beriladigan, takrorlanmas va bebaho ne'matdir. Shunday ekan, agar hayotingizda qiyinchilikka duch kelsangiz, undan chiqish yo'lini izlang, harakat qiling, kurashing. Hech qachon g'am-anduh va tushkunlikka taslim bo'lmang. Chunki har bir og'riqning ortida saboq, har bir sinovning ortida esa yangi imkoniyat yashiringan bo'ladi.

Hayot sinovlar bilan sinaydi, ammo faqat sabotlilargina uning haqiqiy qimmatini anglay oladi.

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA
tayyorladi.**

Vatan tayanchi

Farg'ona viloyatidagi 941 ta umumta'lim maktabining har birida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harakati otryadlari faoliyat yuritmoqda.

Minglab yoshlarni bir maqsad atrofida jipslashtira olgan "Vatan tayanchi" otryadlari oldiga qo'yilgan vazifalar katta miqyosdagi maqsad va mazmunga ega. Otryadning asosiy vazifasi – yosh avlodni Vatanga sodiqlik, xalqqa muhabbat va yuklatilgan vazifalar uchun mas'uliyat ruhida tarbiyalashdan iborat. Muhimi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi 150-qarori asosida tashkil etilgan mazkur harakat o'z vazifalarini bajarish yo'lida tashabbuskorlik va tashkilotchilik namunasini ko'rsatib kelmoqda.

Yoshlar ruhiyati va tarbiyasiga qaratilgan ishlar o'ta nozik jarayondir. Tarbiyaning mazmun-mohiyati ular bilan olib borilayotgan tadbirlar orqali amalda namoyon bo'lishi zarur. Harakat a'zolari har qanday sharoitda Vatan va jamiyat oldida sodiq, faol bo'lish, qiyinchiliklarni bartaraf etishda g'ayrat va tashabbus ko'rsatish bilan ajralib turishi kerak. Bejiz "Vatan tayanchi" harakatining shiori – "Bir jamoa" deb belgilanmagan. Bir maqsad yo'lida birlashish, jamoaviy hamjihatlik bu shiorming mohiyatini ifodalaydi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda Mudofaa vazirligi huzuridagi "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik

VATANPARVARLIK

RUHI SHAKLLANMOQDA



harakati muhim o'rin tutadi. Vatan taqdiri uchun daxldorlik hissi, uning haqiqiy himoyachisi sifatida kamol topish g'oyasi har bir a'zo qalbida mustahkam joy olgan. Chunki yurtga foyda yetkazish ularning bosh maqsadidir.

Bunday ijtimoiy harakatda faol ishtirok etgan, bilim va qobiliyati bilan ajralib turgan a'zolarni rag'batlantirish ham nazarda tutilgan. Eng faol ishtirokchilarning o'tonasi va yashaydigan mahallasiga tashakkurnomalar yuboriladi, mahalla fuqarolar yig'inlaridagi "Hurmat taxtasi"ga ularning surati joylanadi. Bu esa har bir a'zo uchun yuksak rag'batdir.

Shu bilan birga, umumta'lim maktabini namunaviy xulq, faollik va a'lo baholar bilan bitirgan har bir otryaddan bir nafar faol a'zo Mudofaa vazirligi tomonidan belgilangan tartib asosida oliy harbiy ta'lim muassasasiga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma oladi.

"Vatan tayanchi" harakati a'zolari maktabdagi barcha o'quvchilar uchun intizom, ta'lim, sport, san'at, mehnat va hunar o'rganishda ibrat bo'lishlari lozim. Shuningdek, har bir otryad uchun yuqori tashkilot bilan kelishilgan holda maxsus liboslar tayyorlanadi. Ushbu libosda harakatning ramzi aks ettirilgan bo'lib, zamonaviy va ko'rkam ko'rinishi

bilan ajralib turadi. Libosga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi – bu uning yagona standart ekanini ta'minlaydi.

Umuman olganda, "Vatan tayanchi" harakati yosh avlodni ruhan baquvvat, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk etib tarbiyalashdek muhim maqsadga xizmat qiladi. Ishonchimiz komilki, mazkur harakat bolalar va o'smirlar olamini qamrab oladi va yangi, vatanparvar avlodni voyaga yetkazishda muhim omilga aylanadi.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot
xizmati bosh mutaxassisi

O'quv kursi

RAHBAR XODIMLAR MALAKASI OSHIRILDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti hududiy kengashlari raislarining o'quv va ishlab chiqarish bo'yicha o'rinbosarlari "KOD-95", "ADR" va "Taxograf chip kartochkalari"dan foydalanish bo'yicha o'quv kursida o'qitildi.



Birinchi bosqichda Toshkent shahrida tashkilotning Andijon, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri kengashlari rahbar xodimlari, ikkinchi bosqichda esa Buxoro shahrida Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashlarining vakillari malaka oshirdi.

Ikki haftalik o'quv kursida rais o'rinbosarlariga mashg'ulotlar "Swift Road Transport Academy" MChJ mutaxassislari tomonidan o'tkazildi.

Mazkur o'quv kursini tashkil etishdan maqsad "Vatanparvar" tashkiloti va "Swift Road Transport Academy" MChJ o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumiga binoan, Yevropada yuk va yo'lovchi tashuvchi transport vositasi haydovchisi sifatida ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonlik fuqarolarni "KOD-95", "ADR" va "Taxograf chip kartochkalari" bo'yicha tayyorlashdan iboratdir.

Endilikda maxsus sertifikatga ega bo'lgan raislar o'rinbosarlari o'z hududlarida istiqomat qilayotgan talabgorlarning yuqoridagi bilim va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlaydi.



Supermotokross

RESPUBLIKA MUSOBAQASI O'TKAZILDI



2025-yil boshidan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning texnik va amaliy sport turlari bo'yicha 47 ta respublika musobaqasi o'tkazildi. Ushbu musobaqalarda barcha hududlardan tashkilotning terma jamoalari faol ishtirok etdi.

"Vatanparvar" tashkiloti Respublika texnik va amaliy sport turlari markazida tashkil etilgan supermotokross bo'yicha respublika sport musobaqasida mamlakatimizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 50 dan ortiq sportchi o'zaro bellashdi. Ta'kidlash joizki, ushbu musobaqa tashkilot tizimida 2025-yilgi sport mavsumining yopilishi hisoblanadi.

Supermotokross dunyo bo'ylab juda mashhur, shu bilan birga ekstremal sport turi hisoblanadi. Chunki sportchilar bellashadigan musobaqa trassasi tabiiy tuproqda qo'pol yerlar va ko'plab to'siqlardan iborat bo'ladi. Sportchilardan bunday joylardan yuqori tezlikda balandga sakragan holda harakatlanishlari talab etiladi.

Supermotokross bo'yicha sport musobaqasi ushbu sinflarni o'z ichiga oldi:

- "85 sm³" sinfida (12–15 yosh) – 7 daqiqa;
- "125 sm³" sinfida (14 yoshdan 18 yoshgacha) – 8 daqiqa;
- "500 sm³" sinfida (18 yosh va undan katta yoshdagilar) – 10 daqiqada 2 aylanma

(krug);

- "ChZ" sinfida (18 yosh va undan katta yoshdagilar) – 10 daqiqada 2 aylanma.

G'oliblikni va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



Xususan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi tuman o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar shular jumlasidandir.

Chunonchi, yakunlanayotgan 2025-yilda ham tashkilotimiz tomonidan tuman mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi, Yoshlar ishlari



O'z poyoniga yetayotgan 2025-yilda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida ham muayyan natijalarga erishildi.

YOSHLAR UCHUN KENG IMKONIYATLAR

agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman bo'limlari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik targ'iboti faol tarzda olib borildi. Albatta, bizga bu borada tashkilotimizning 34 yilligini ko'tarinki ruhda o'tkazishga bag'ishlangan tadbirlar rejasi dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Jumladan, ushbu muhim sanaga bag'ishlangan "Vatanparvar" – mening tanlovim!", "Vatanparvar" tashkiloti mening taqdirimda! kabi mavzularda turli ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari o'tkazildi.

O'STM NTM xodimlari tomonidan tuman yoshlarini ma'nan yetuk shaxslar

sifatida kamol topishlariga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Shu kunlarda markazda faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting" hamda "Duatlon" kabi seksiya va to'garaklarda 50 nafarga yaqin iqtidorli yosh jalb etilgan. Sportchi yosh o'z navbatida nufuzli musobaqalarda yaxshi natijalarga erishdi.

Ta'kidlab o'tish joizki, markazda nafaqat sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, balki ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash borasida ham salmoqli natijalarga erishildi. Belgilangan

reja asosida "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlandi.

Shuningdek, "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan kam ta'minlagan oilalar farzandlari uchun ham imtiyoz asosida o'quv kurslari tashkil etildi. Muhimi, ushbu yilda ham tinglovchilarning hayotda kerak bo'ladigan kasb-hunarlarini puxta egallab olishlari uchun markazda keng imkoniyatlar yaratildi. Ayni kunlarda ham bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Lazizbek RAJABOV,
"Vatanparvar" tashkiloti
Chiroqchi tumani O'STM
NTM direktori

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Jizzax viloyati kengashi tasarrufidagi Jizzax shahri o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi poyoniga yetayotgan 2025-yil mobaynida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida samarali natijalarga erishdi.

Jumladan, yoshlar va fuqarolarni mudofaa borasidagi boshlang'ich bilimlarga o'qitishga va ularni harbiy xizmatga tayyorlash borasida davlat hokimiyati organlariga ko'maklashish maqsadida shahar hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi hamda IIB JXX YHX bo'linmalari bilan hamkorlikda ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Xususan, "Vatanparvar" tashkilotining 34 yilligi munosabati bilan Jizzax shahridagi 1-, 3-, 14-, 22-umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida havo miltig'idan o'q otish bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Muhim sanaga bag'ishlab "Vatanparvar" – tashkiloti mening tanlovim!" shiori ostida ham qator tadbirlar tashkil etildi. Bundan tashqari, Konstitutsiya qabul qilingan kunga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Shuningdek, avtokross bo'yicha respublika birinchiligi musobaqasida jizzaxlik avtosportchilar faxrli birinchi o'rinni egalladi.



SAMARALI MEHNAT NATIJASI

Ayni paytda O'STM NTM qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Avtosport", "Motokross" kabi seksiyalarda o'ttiz nafarga yaqin yosh jadval asosida muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Tashkilotimizning yana bir muhim yo'nalishlaridan biri ommaviy kasbdagi xodimlarni tayyorlash ishlari ham muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Markaz jamoasining bir yoqadan bosh chiqarib birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan "A", "B", "BC", "D" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari namunali tashkil etilmoqda.

Albatta, yaxshi natijalarga erishishda markazda faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi ustalarning fidokorona mehnatlarini e'tirof etish o'rindir.

O'ktam ABDUSALIHOV,
"Vatanparvar" tashkiloti
Jizzax shahri O'STM
NTM direktori



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

E'TIROFGA MOLIK YUMUSHLAR

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Romitan tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi tomonidan ham yakunlanayotgan 2025-yilda yoshlarni ijtimoiy foydali hamda ommaviy vatanparvarlik ishlariga jalb etish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etishga va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega farzandlar sifatida voyaga yetkazishga yo'naltirilgan tadbirlar bu boradagi ishlar sirasidandir. Chunonchi, o'z poyoniga yetayotgan 2025-yilda ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qancha hamkor tashkilotlar bilan kelishilgan reja asosida ish olib borildi.

Birgina muhim sanalar munosabati bilan ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida o'tkazilgan turli tadbirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, tashkilot jamoasi tomonidan yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda ularni markazda faoliyat ko'rsatayotgan sport to'garaklariga jalb etish maqsadida ham ko'plab amaliy ishlar qilindi.

Tashkilotimizda 2025-yil mobaynida “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlash jarayoni ham muvaffaqiyatli uddalandi. Buning uchun



markazda muayyan shart-sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, yoshlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish ishlari e'tiborga molik bo'ldi. Buning uchun "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan yoshlar hamda kam ta'minlangan oilalar farzandlariga bir qancha qulayliklar yaratildi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, yakunlanayotgan yilda romitanlik vatanparvachilar el-yurt ravaqida o'zlarining munosib hissasini qo'sha oldi. Tilagimiz, ana shunday jo'shqinlik sizni kirib kelayotgan yangi yilda ham tark etmasin, aziz "Vatanparvar"chilar!

**Zafar AKRAMOV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Romitan tumani O‘STM
NTM direktori**

YOSHLAR KAMOLOTI YO'LIDA



**Yakunlanayotgan
2025-yilda O'zbekiston
Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkilotining
Jizzax viloyati kengashi
tasarrufidagi Sharof Rashidov
tumani o'quv sport-texnika markazi
nodavlat ta'lim muassasasida
yoshlarni ma'naviy yuksaltirish,
ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida
tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor
qaratildi.**

Bunday tadbirlar ayniqsa “Vatanparvar” tashkilotining 34 yilligi munosabati bilan yanada izchil tus oldi. Xususan, tashkilot jamoasi tashabbusi bilan “Biz vatanparvarlarmiz!” shiori ostida tumandagi mahallalar, o’quv muassasalari hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlari ham ushbu muhim sanaga bag’ishlangani bilan ham e’tiborga molik bo’ldi.

Tuman mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarda ko'plab yoshlar ham faol ishtirok etdi. Albatta, muhim sana munosabati bilan o'tkazilgan bunday tadbirlar yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat va sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar kamolotida alohida o'ringa ega.



Ayni paytda tashkilotda ommaviy kasbdagi ko'plab texnik mutaxassislar tayyorlab kelinmoqda. O'z navbatida, markazda buning uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Shu kunlarda "B", "BC", "CE", "CE" va "D" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, markaz a'zolari bo'lgan yosh sportchilar havo miltig'idan o'q otish, aviamodel, karting bo'yicha tuman, viloyat miqyosidagi musobaqalarda faol qatnashib, umumjamoa hisobida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Albatta, sport bilan muntazam shug'ullanishga shart-sharoitlarning mavjudligi va turli seksiya va to'garaklarning ishlab turishi ham o'zining ijobiy natijasini bermoqda.

Hamkor tashkilotlar bilan belgilangan reja asosida turli tadbirlar o'tkazib kelinayotgani ertamiz davomchilarida harbiy-vatanparvarlik tush'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Mansurbek RAHMONOV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Sharof Rashidov tumani
O‘STM NTM direktori**

Mulohaza

EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH — DAVR TALABI

Inson tabiiy muhitga ta'sir etar ekan, uning o'zi ham "aks ta'sir"ga duch kelmoqda. Bularning barchasi endilikda insonning o'ziga va uning sog'lom tabiiy muhitda yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Inson hayotini tabiiy muhitsiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish, uning musaffoligini saqlash insoniyatning muqaddas burchidir. Bizni qurshab turgan suv, havo, tuproq, o'simliklar olamining hozirgi ahvoli, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, biosferani muhofaza qilish choralari ko'rish ham har bir kishining muhim vazifalaridan biridir.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qabul qilingan qarori ijrosi "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Ma'lumki, ekologik madaniyatni shakllantirishga bo'lgan munosabat tarixiy xususiyatga ega. Qadimgi tarixiy yodgorliklardan sanalgan muqaddas zardushtiylilik dini asosida yaratilgan "Avesto" asarida tabiatga bo'lgan munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Unda insonlarni rostgo'ylikka, adolatparvarlikka undovchi, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, yaylovlarni kengaytirish g'oyalari, insonlarning madaniy turmush tarzini yaxshilashga undovchi g'oyalarning mavjudligi ahamiyatlidir.

Turkistonda yashab o'tgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar nafaqat jamiyat va insonlar haqida, balki tabiat haqida ham ko'plab fikr-mulohazalarini yozib qoldirgan. Ularning inson madaniyati va ongining rivojlanishida tabiatning katta ahamiyat kasb etishi to'g'risidagi fikrlari ham beqiyosdir.

Ekologik me'yorlarni bilish yosh avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har qaysi tarixiy davrlarda ham insonlarning tabiatga bo'lgan munosabatlari mavjud bo'lgan. Sharq mutafakkirlari asarlarida halollik, poklik, atrof-muhitning tozaligi va tabiatni sevish xislatlariga ahamiyat berilgan. Vatandoshimiz Ibn Sino "Tabiatda

g'ubor bo'lmaganda insonlar umri yanada uzayishi" haqidagi nazariyani ilgari surgan.

Forobiyning fikricha, "Xalqning odobi, axloqi, xarakteri, madaniyati va boshqalar geografik muhit, tabiiy boyliklar, suv, havo, o'simlik kabilarning ta'sirida shakllanadi".

Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining "Boburnoma" asarida inson madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda tabiatni muhofaza qilish, uni gulzor va bog'lar bilan bezash, hayvonot va nabotot olamini asrash muhimligi to'g'risida ham to'xtalgan. U tabiatning jonli va jonsiz elementlarini asrash "yuksak insoniy madaniyat" deb bilgan.

Ushbu allomalarning fikrlari hozirgi jamiyatimizdagi yetakchi g'oyalarga mos keladi. Yildan yilga shahar-qishloqlarimiz obod bo'lib, chiroy ochmoqda. Bu natijalar fuqarolarimizning ekologik madaniyati yuksalganidan dalolat beradi.

Ekologik muammolarni bartaraf etish, uning oldini olish uchun aholining ekologik madaniyati va ongini oshirish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatlarini yuksaltirish talab etiladi.

Ekologik madaniyat – bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida

qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir. Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi deb atash mumkin.

Oilada ekologik ta'lim va tarbiya berishdan maqsad – bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning yosh avlodning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarini ko'paytirish, bog'-u rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Bugungi kunda ekologik madaniyatni yuksaltirish borasida jamoatchilik tomonidan olib borilayotgan ishlar qatorida – aholiga ekologik tarbiyaning kechiktirmay singdirilishiga ham e'tibor qaratilishi lozim. Har bir kishi biror yerga axlat yoki chiqindilarni tashlashdan oldin o'z xatti-harakatlarini o'ylashi, tashqi muhitning yaxshi saqlanishiga javobgar ekanini unutmasligi kerak. Qisqasi, har bir fuqaro kelajakka umid bilan qarashi lozim. Ekologik tarbiya samaradorligini oshirishni

keng ko'lamda (bog'cha, maktab, muassasa, ko'cha-ko'y, jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlarida) amalga oshirish zarurdir. Bu ish hozirgi kunning muhim muammolaridan biri bo'lib, kelajak sog'lom avlod uchun kafolat beradi.

Yangi O'zbekistonimizda ekologik madaniyatni yuksaltirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

aholining turli qatlamlari, talabalar va o'quvchi-yoshlar o'rtasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Yangi daraxt – yangi nafas" respublika ekochempionatini o'tkazish an'anasi yo'lga qo'yildi;

har oyda bir marotaba "Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz" shiori ostida aksiyalar, tashviqot tadbirlari o'tkazib kelinmoqda;

mahallalarda milliy qadriyatimizning ajralmas qismiga aylangan va atrof-muhit tozaligini saqlashni targ'ib qiluvchi ekohasharlar muntazam tashkil etilmoqda;

mahallalarda ekovolontyor guruhlar tashkil etilib, ularga yoshlarni jalb etgan holda aksiyalar, fleshmoblar va boshqa tadbirlar o'tkazish an'anasi davom etmoqda;

har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida, maktablarda namuna asosida ekologik burchak va bog'lar tashkil etilgan.

Yashil olam inson salomatligini saqlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanini, shuning uchun ham har bir inson o'z uyi, hovlisi, ko'cha va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirish ishida faol qatnashishi, ko'chat o'tqazib, ularni parvarish qilish orqali atrof-muhitning musaffo bo'lishiga hissa qo'shishi kerakligi tushuntirilishi lozim.

Ota-bobolarimiz qoldirgan nodir meros – musaffo osmon, tiniq suv, toza tuproq, yer qari va yerusti boyliklarini qanday asramog'imiz, ularni asl hoida kelgusi avlodlarga topshirmog'imizni tushuntirish – eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan umummilliy masaladir.

Ilhom BEGIMKULOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti katta o'qituvchisi

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliq'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6056
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 955 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.